



# PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024 №1

EDITION 1

ISSN 2992-8966

“PEDAGOGIKA  
VA  
PSIXOLOGIYA”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024-yil, 1-son

Jurnal 2023-yildan chiqa boshlangan

BUXORO-2024

**“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”****Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

		TAHRIR HAY'ATI:
Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti		<b>Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi		<b>Muxtorov Erkin Mustafoyevich</b> , psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan		<b>Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich</b> , texnika fanlari doktori, professor
2022-yil 16-noyabr № 04-8644-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.		<b>Kozlov Vladimir Vasilyevich</b> , psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich–pedagogika fanlari doktori, professor		<b>Inoyatov Sulaymon Inoyatovich</b> , tarix fanlari doktori, professor
Jamoatchilik kengashi raisi: Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori		<b>Emelyanova Irina Evgenievna</b> , pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya)
Mas'ul kotib: Nusratov Anvar Ne'matjonich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)		<b>Filippova Oksana Gennadiyevna</b> , pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya)
Jurnal 2022 yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingлиз tillarida nashr etiladi.		<b>Olimov Shirinboy Sharofovich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy, E-mail: <a href="mailto:sjkamolot@gmail.com">sjkamolot@gmail.com</a>		<b>Ibragimov Xolboy Ibragimovich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
Jurnal sayti: <a href="https://scientificjournal.uz/">https://scientificjournal.uz/</a>		<b>Safaraliyev Bozor Safaraliyevich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor (Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, Rossiya)
Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.		<b>Chariev Irgash To'rayevich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
		<b>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
		<b>Murodov Sherzod Normonovich</b> , fizika –matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
		<b>Izbullayeva Gulchehra Veleriyevna</b> , pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
		<b>Eshov Erkin Sattorovich</b> , dotsent
		<b>Ro'ziyeva Dilnoza Isomjonovna</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
		<b>Akramova Gulbahor Rinatovna</b> , pedagogika fanlari doktori, professor
		<b>Qurbanova Gulnoz Negmatovna</b> , pedagogika fanlari doktori (DSc)
		<b>Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich</b> , pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
		<b>Xo'jayev Bolta Qurbanovich</b> , pedagogika fanlari nozodi, dotsent
		<b>Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich</b> , pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
		<b>Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich</b> , pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
		<b>Ikromov Amirkbek Aminovich</b> , pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
		<b>Abdullayev Qobil Fayzullayevich</b> , dotsent
		<b>Avezov Olmos Ravshanovich</b> , psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
		<b>Bafayev Muxiddin Muxammadovich</b> , psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
		<b>Sattorov Mirshod Erkinovich</b> "KAMOLOT" nashriyoti direktori

## Mundarija:

Islomov Dilshod Shomurodovich.	
FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR.....	4
Tosheva Dildora Iskandarovna.	
MILLIY TA'LIM KONSEPSIYASI JADID MA'RIFATPARVARLARI FAOLIYATIDA.....	10
Radjabov Ruslan Rajabmurodovich.	
FRANSIYA TILI IMLOSINI SODDALASHTIRISH YO'LIDA OLIB BORILGAN IZLANISHLAR XUSUSIDA.....	18
Qurbanova O'lmasoy Usmonovna.	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	25
Sobirov Abdulaziz Abdurozikovich.	
TALABALARNING REPRODUKTIV SALOMATLIGI MUAMMOLARI .....	35
Jamolova Lubat Ilhomovna.	
BUXORO AMIRLIGI TARIXSHUNOSLIGIDA AHMAD DONISH ASARLARINING O'RNI HAMDA AHAMIYATI .....	45
Murodov Ulug'bek O'tkir O'g'li.	
ENHANCING COGNITIVE PROCESSES IN STUDENT CREATIVE ACTIVITIES: A PEDAGOGICAL PERSPECTIVE .....	52
Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich.	
SHIHOBUDDIN SUHRAVARDIY QARASHLARIDA NAFSNI TIYISH, KAMTARINLIK, FAZILATLARINING TALQINI.....	58
Ярашев Жамшид Рazzокович	
ФИЗИЧЕСКОЕ ПОДГОТОВКА ПОДРОСТКОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ВОЛЬНОЙ БОРЬБЕ.....	71

## FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR

Islomov Dilshod Shomurodovich

Buxoro davlat universiteti

### Annotation

**KIRISH:** mazkur maqolada fransuz va o'zbek tillarida inson ruhiyatini ifodalovchi fono-grafostilistik vositalarning roli, ularning og'zaki va yozma nutqda ekspressiv-emotsional xususiyatlari, psixolingvistika bilan aloqador tomonlari, orfoepiya va orfografiyaning stilistika bilan tilshunoslik chorrahasida o'zaro kesishuvi natijasida paydo bo'lgani haqida ilmiy qarashlar keltirilgan, munosabat bildirilgan va misollar yordamida dalillangan.

**MAQSAD:** Fransuz va o'zbek tillaridagi fono-grafostilistik vositalar yordamida nutqning ekspressiv-emotsionalligini oshirish, so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini ko'rsatish. Shu bilan birga, fono-grafostilistik vositalarning og'zaki va yozma diskurslar orqali inson ruhiyatiga ta'sirini hamda tilshunoslikdagi o'rmini ko'rsatish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqot jarayonida til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, fonologiya, fonostilistik va grafostilistik vositalarga oid ilmiy materialarni tahlil qilishda tavsifiy, komponent, konseptual, qiyosiy va chog'ishtirma tahlil kabi ilmiy metodlardan foydalilanilgan.

**XULOSA:** Og'zaki va yozma diskurslarning bo'yodkorligini, ekspressiv-emotsional xususiyatlarini ochib berishda fono-grafostilistik vositalarning o'rni va vazifasi beqiyosdir. Fono-grafostilistik vositalar har qanday diskurs, matn va asarlarni tinglovchiga qiziqarli va saviyali qilib ko'rsatadi. Shu bilan birga inson ruhiy holatini namoyon qilishda alohida ahamiyatga ega.

**KALIT SO'ZLAR:** fonostilistica, grafostilistica, vosita, inson ruhiyati, segment va supersegment vositalar, perceptiv, psixofonetika, orfoepiya, orfografiya, stilistika, fonologiya, abstrakt, punktuatsiya, shrift, grafema.

### Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в данной статье рассмотрена роль фонографостилистических средств, выражающих психику человека во французском и узбекском языках, их экспрессивно-эмоциональные особенности в устной и письменной речи, их аспекты, относящиеся к психолингвистике, возникшие в результате пересечения орфография и

орфография на стыке стилистики и языкоznания излагаются научные взгляды на проблему, выражаются взгляды и доказываются с помощью примеров.

**ЦЕЛЬ:** повысить выразительность и эмоциональность речи, показать денотативные и коннотативные значения слов с помощью фонографостилистических средств во французском и узбекском языках. Одновременно показать влияние фонографостилистических средств на психику человека через устные и письменные дискурсы и их место в лингвистике.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе исследования были использованы такие научные методы, как описательный, компонентный, концептуальный, сравнительный и перекрестный анализ при анализе научных материалов, связанных с теорией языка, межкультурной коммуникацией, фонологией, фоностилистическими и графостилистическими инструментами.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Роль и функция фонографостилистических средств несопоставимы в раскрытии красочности и экспрессивно-эмоциональных особенностей устной и письменной речи. Фонографостилистические средства делают любой дискурс, текст и произведение интересным и изысканным для слушателя. В то же время оно имеет особое значение в проявлении психического состояния человека.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** фоностилистика, графостилистика, инструмент, психика человека, сегментные и суперсегментные инструменты, перцептив, психофонетика, орфоэпия, орфография, стилистика, фонология, аннотация, пунктуация, шрифт, графема.

### Annotation

**INTRODUCTION:** in this article, the role of phono-graphostylistic tools that express the human psyche in French and Uzbek languages, their expressive-emotional features in spoken and written speech, their aspects related to psycholinguistics, which appeared as a result of the intersection of orthography and orthography at the intersection of stylistics and linguistics. Scientific views about the problem are presented, attitudes are expressed and evidenced with the help of examples.

**AIM:** to increase the expressiveness and emotionality of speech, to show the denotative and connotative meanings of words with the help of phono-graphostylistic tools in French and Uzbek languages. At the same time, to show

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

the impact of phono-graphostylistic tools on the human psyche through oral and written discourses and their place in linguistics.

**MATERIALS AND METHODS:** In the research process, scientific methods such as descriptive, component, conceptual, comparative and cross-sectional analysis were used in the analysis of scientific materials related to language theory, intercultural communication, phonology, phonostylistic and graphostylistic tools.

**CONCLUSION:** The role and function of phono-graphostylistic tools is incomparable in revealing the colorfulness and expressive-emotional features of oral and written discourses. Phono-graphostylistic tools make any discourse, text and works interesting and sophisticated to the listener. At the same time, it is of particular importance in the manifestation of a person's mental state.

**KEY WORDS:** phonostylistics, graphostylistics, tool, human psyche, segment and supersegment tools, perceptive, psychophonetics, orthoepy, orthography, stylistics, phonology, abstract, punctuation, font, grapheme.

Til insonlar o'rtasidagi muloqot quroli hisoblanib, inson tafakkuri rivojlangani sari tilda ham bir qancha o'zgarishlarni taqozo etadi. Og'zaki muloqot esa bevosita fonetika, fonologiya, orfografiya va stilistika bilan chambarchas bog'liq ekani hammaga ma'lum. Shu bilan birga og'zaki va yozma nutq amaliyoti tilshunoslikning asoslari desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin og'zaki va yozma nutq amaliyotlari tilshunoslikning fonetika, fonologiya, fonostilistika, orfografiya v grafostilistika kabi bo'limlarida o'rganilishi o'z o'rniда bu sohalarda yangi tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda. Tilshunoslikning mazkur bo'limlari orfoepiya, orfografiya, fonetika, grafika va stilistikalarining o'zaro kesishuvni natijasida yuzaga kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Fonostilistika va grafostilistikaning orfoepiya, orfografiya va stilistika kabi fanlarning yig'indisi sifatida emas, balki tilshunoslikdagi bu bo'limlarning yangi tadqiqotlar o'tkazish uchun har uchchala fanning nazariyalari va usullaridan foydalanish deb qaralsa ilmiy jihatdan ham to'g'ri bo'ladi desak maqsadga muvofiq bo'ladi.


Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Stilistika - tilshunoslikning adabiy til doirasidagi tovush birliklarining lingvistik aloqa orqali turli vaziyatlarda funksional tabaqlanishiga muvofiq ishlashni o'rganadigan bo'lim hisoblanadi.

Tilshunoslikning fonetika bo'limida esa, asosan, nutq tovushlari (ularning artikulyatsion, akustik, perceptiv (psixofonetik), funksional tomonlari) va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi[ 2;18-20].

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, fonetika va fonologiya haqidagi qarashlar juda xilma-xildir. Ba'zi tilshunoslar fonetika tildagi tovushlar, bo'g'in va intonatsiyani tekshirishini hisobga olgan holda, fonologiyani fonetikaning abstrakt (mavhum) pog'onasi ekanligini ta'kidlasa, boshqa tilshunoslar esa fonetikaning artikulyatsion, akustik, eshitib his qilish tomonlari qatorida to'rtinchi fonologik aspekt, deb hisoblashadi. Chunki fonologik aspekt tildagi tovush, bo'g'in, urg'u va intonatsiyalarning ma'noni farqlash xususiyatlari, ularning sotsial va funksional tomonlarini o'rganilishini yaqqol ko'rsatib beradi. Fonologik aspektlarning fonostilistikada o'rganilishi natijasida fonostilistik vositalarning yuzaga kelishida asosiy omillardan biri bo'lib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur hamkorlikning natijasini quyidagi segment va supersegment elementlarda yaqqol ko'rish mumkin.

**Fonostilistik vositalarni** odatda ikkita tekislik orqali o'rganish masadga muvofiqdir:



Fonostilistik tahlil qilinadigan matnlarning stilistik spektri juda ham xilma-xildir. Bunga jurnalistik, ilmiy, siyosiy, notiqlik, badiiy, biznes, neytral kabi stilistik spektrlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

O'zbek tilshunos olimi A.A.Haydarovning "Grafik stilistikada matnning tipologik xususiyatlari, shu jumladan, punktuatsiya, shrift, grafemalarining hajmi va joylashuviga e'tibor beriladi" deb bildirgan fikri alohida ahamiyatga molik [1; 137]. Ingliz tilshunos olimi J.Lich esa "Grafik uslubiy vositalar butun yozuv tizimiga tegishlidir: punktuatsiya, abzas va bo'sh joy" deb ta'riflasa, Bilol va Chimalar esa "Grafik vositalar gapda tizim shakllanishi, tuzulishi va tinish

belgilari bilan shug'ullanishi"ni e'tirof etishadi[1;137-138]. Grafik o'zgarishlar faqatgina talaffuzning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishdan emas, balki, urg'u bilan so'zlarni alohida ta'kidlab ko'rsatadi va mazkurning ta'kidning intensivligi, emotsiyal-ekspressivligini ifodalash uchun ham ishlatiladi.

**Sof grafik vositalarga** matn bo'laklarini abzas bilan yozish, bosh va kishik harflarda yozish, turli kattaliklarda yozilgan harflarni ishlatish, ayrim so'z va matn bo'laklarini kursiv bilan yozish, she'riyatda misralarni pog'onalab yozish, she'r qatorlaridan birini tushurib qoldirish va uning o'rniga bir necha nuqtalar qo'yish, matnda turli tinish belgilardan uslubiy maqsadda foydalanish kabilalar kiradi.



Yuqoridagi jadvalda ko'rinish turganidek grafostistik vositalar yozma diskurslarni yozishda va mazkur diskurslarni ekspressiv-emotsional, bo'yoqdorligini oshirishda hamda uni ko'rsatib berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. A.A.Haydarov. "Grafik vositalarning uslubiy xususiyatlari. Ilm sarchashmalari. Urganch-2021, 3-son.
2. H.A.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-2004.
3. Islomov, D. Sh. "SIMILARITY ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 10.10 (2023).
4. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "THE EMERGENCE OF PSYCHOLINGUISTICS, THE SCIENTISTS' SCIENTIFIC-THEORETICAL

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

VIEWS AND ITS CONNECTION WITH OTHER SCIENCES." JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN 6.5 (2023): 213-218.

5. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "À PROPOS DU TERME PHONOPSYCHOLOGIE." *Conferencea* (2023): 45-47.
6. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "LE ROLE DE L'EMOTION EN PHONOPSYCHOLOGIE." *Conferencea* (2023): 77-79.
7. Islomov, D. Sh. "The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9." (2021).
8. Islomov, Dilshod. "ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ТУШУНЧАЛАРИГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КАРАШЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*) 1.1 (2020).
9. Islomov, D. Sh. "The articulation of sounds in french." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 10.10 (2023).
10. Islomov, Dilshod. "Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффект берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*) 16.16 (2022).
11. Islomov, Dilshod. "TOVUSHLAR O 'ZBEK TILIDA TOVUSHLAR ARTIKULYATSIYASI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*) 45.45 (2024).
12. Islomov, Dilshod. "LE TERME PHONOLOGIE, PHONOSTYLISTIQUE SELON NS TRUBETSKOY." *Models and methods in modern science* 2.14 (2023): 19-22.
13. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "La phonostylistique est étudié par le linguiste russe NS Trubetskoy." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 715-721.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]  
[AUTHORS INFO]**

Islomov Dilshod Shomurodovich filogoya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD, Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro.

MILLIY TA'LIM KONSEPSIYASI JADID MA'RIFATPARVARLARI  
FAOLIYATIDA.

Tosheva Dildora Iskandarovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarning pedagogik qarshlari, yangi usul maktablaridagi ta'lim tarbiya jarayoni va mamlakatimizdagi islohatlar haqida ma'lumot berilgan.

**KIRISH.** Yoshlarimiz albatta o'z tarixini va buyuk ajodolarining hayot yo'llarini bilishi, ular qoldirgan boy ma'naviy me'rosidan foydalangan holda ta'lim jarayoniga milliy ruhda yondashishi, mamlakatimizda bo'layotgan islohotlarga o'z munosabatini bildira olishi lozimdir.

**MAQSAD:** Milliy ta'lim konsepsiyasining jadidlar tomionidan yaratilganligi va amamaliyatga tadbiq etilganligini tahlil etish. Bugun ta'limga bo'lgan e'tibor, yoshlarga bo'lgan ishonch va imkoniyatlar ularni yanada ko'proq ilm olishga da'vat etadi. Zero ajodolarimiz orzu qilgan intelekti yuqori bo'lgan yoshlarimizni dunyo tan olmog'i ularning yutig'i, millatning faxri bo'lmog'i darkor.

"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas", degan hadisi sharifda. Shunday ekan biz millatning ravnaqi, mamlakat farovonligi uchun ilm -ma'rifatni yuksaltirishimiz, ta'lim tizimini milliy mafkuraviy g'oyalarga yug'rilgan holda isloq qilishimiz kerak.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Jadidlar faoliyati, matbuot xizmatlari, ularning ta'lim islohotlari, yangi ususl maktablari, ulardagи pedagogik faoliyat, ta'lim tizimi va ta'lim ususllarini tadqiq qulish va takomillashtirish jadidlar faoliyatini o'rganish, tahlil qilish, ilmiy asoslash.

**XULOSA:** Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan targ'ibot asosida jadidlar ijodini o'rganish ta'lim sohasidagi islohotlarini tahlil qilish va tadbiq etishda ilmiy izlanishlarni amalga oshirish orqali milliy ta'lim tizimimizni yanada takomillashtirishdan iborat.

**KALIT SO'ZLAR:** Jadid ma'rifatparvarlari, milliy tarbiya, milliy mafkura, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ilm- ma'rifat.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлена информация о педагогических возражениях современных просветителей, учебном процессе в школах нового метода, реформах в нашей стране.

**ВВЕДЕНИЕ:** Нашей молодежи необходимо знать свою историю и образ жизни своих великих предков, подходить к образовательному процессу в национальном духе, используя оставленное ими богатое

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

духовное наследие, уметь выражать свою реакцию на реформы, происходящие в нашей стране.

**ЦЕЛЬ:** проанализировать реализацию концепции национального образования с современной точки зрения и ее практическое применение. Сегодня внимание к образованию, уверенность в молодых людях и возможностях побуждают их учиться больше. Ведь необходимо, чтобы мир признал нашу молодежь с высоким интеллектом, о котором мечтали наши предки, и это должно быть их достижением и гордостью нации.

Есть хадис, в котором говорится: «Нет спасения, кроме знания, и оно невозможно». Поэтому для процветания нации мы должны совершенствовать науку и образование, реформировать систему образования на основе национальных идеологических идей.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** деятельность модернистов, пресс-служб, их образовательные реформы, новометодические школы, педагогическая деятельность в них, исследование и совершенствование образовательной системы и методов обучения, изучение, анализ, научное обоснование деятельности модернистов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Исходя из пропаганды Президента, изучение современных работ призвано способствовать дальнейшему совершенствованию нашей национальной системы образования путем проведения научных исследований по анализу и реализации реформ в сфере образования.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** просветители-джадиды, национальное образование, национальная идеология, нравы, образование, наука-просвещение.

**ANNOTATION:** This article provides information about the pedagogical objections of the modern enlighteners, the educational process in the schools of the new method, and the reforms in our country.

**INTRODUCTION.** It is necessary for our youth to know their history and the ways of life of their great ancestors, to approach the educational process in a national spirit using the rich spiritual heritage left by them, and to be able to express their reaction to the reforms taking place in our country.

**PURPOSE:** to analyze the implementation of the concept of national education from the modern point of view and its practical application. Today, attention to education, confidence in young people and opportunities encourage them to learn more. After all, it is necessary for the world to recognize our young people with high intellect, which our ancestors dreamed of, and it should be their achievement and the pride of the nation.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

There is a hadith that says, "There is no salvation except knowledge and it is impossible." Therefore, for the prosperity of the nation, we must improve science and education, reform the education system based on national ideological ideas.

**MATERIALS AND METHODS:** activity of modernists, press services, their educational reforms, new method schools, pedagogical activity in them, research and improvement of educational system and educational methods, study, analysis, scientific justification of the activity of modernists.

**CONCLUSION:** Based on the propaganda of the President, the study of modern works is to further improve our national education system by conducting scientific research in the analysis and implementation of reforms in the field of education.

**KEY WORDS:** Jadid enlighteners, national education, national ideology, manners, education, science-enlightenment.

**O'**zbekistonning yangi taraqqiyot davrida jahon miqyosidagi raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish va uni kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqaladi. Prezidentimiz tarixga nazar solib shunday deydi: "O'yaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi - bugun biz ularning pirovard maqsdalarini amalga oshiramiz".<sup>1</sup>

Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmon bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiyl madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab yetganlar.

Ularning aksariyati o'z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma'rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg'urish kabi muammolarni ko'tarib chiqqan edilar. Jadid bobolarimiz

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyagi nutqi.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Turkiston aholisining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, xalqning dunyoqarashida madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar yasashning muhim omili sifatida maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab olgan edi. "Millatning taraqqiysi aning avval muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodat eshigi bo'lgan maktabimizni zamong'a muvofiq isloq qilish kerak", deb yozgan edi Hoji Muin Shukrullo.<sup>2</sup> Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid bobolarimizning keng qamrovli munozaralariga sabab bo'ldi.

Yangi usul (jadid) maktablarining ochilishi, undagi bosh maqsad milliy mafkura (hurlik, erkinlik, savodsiylik, qashshoqlik va qullikka qarshi ma'rifikat va ilm bilan erishish) asnosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirilishini belgilab berdi.

Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni, millatni ma'rifikatli qilish bo'lib uni amalga oshirish dasturi 3 bosqichdan iborat edi:

**1.Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish-** Ismoil Gaspirali tashabbusi bilan 1895 yilda jadid maktablarini Buxoroda Jo'raboy, Samarqandda A.SHakuriy, S.Aziziy, A Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, A.Avloniylar, Qo'qonda Hamza, Namanganda I.Ibrat, So'fizoda va shu kabi buyuk siymolarimiz ochganlar va o'z faoliyatlarini olib borishgan.

**2.Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;**

**3.Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etishdan iborat.**

Matbuot		
Muxarrir	Ro'znama	Chop etilgan davr
Ismoil Obidovning	«Taraqqiy»	1906 yil
Munavvarqori	«Xurshid»	1906 yil
Abdulla Avloniy	«SHuxrat»	1907-1908 yillarda
Axmadjon Bektemirov	«Osiyo»	1908 yilda

Lekin tez orada yuqorida nomlari zikr etilgan bu ro'znomalarni chop etish man qilindi. Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917 yilda esa «El bayrog'i», «Kengash», «Xurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetalari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari xam paydo bo'ldi.

**Muhokama va natijalar.** Jadidlarning asosiy maqsadi halqni ko'zini zamon haqiqatlarini ko'rishga o'rgatish, mamlakatda va dunyoda bo'layotgan islohotlarni targ'ib qilish. Darhaqiqat, millat ma'naviyatini isloq etish,

<sup>2</sup> Nodira mustafoyevaning "Jadid bobolarimizning orzu armoni ushaladigan davr" maqolasidan.

## PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

odamlarni ma'rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o'rgatish va mudroq tafakkurni uyg'otishning eng asosiy omili sifatida jadidlar matbuotning qadrini baland ko'tardi. Ular nazdida matbuot – fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ong-u shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu sifatida aks ettirildi.

Xalqni millatni ma'rifatli qilish maqsadida jadid ma'rifatparvari Munavvar Qori 1907 yilda o'z hisobidan uyida yangi usuldagagi maktab ochib, shu maktabda 5 yillik boshlang'ich ta'limni 3 yoldayoq amalga oshirdi. Munavvar Qori ham boshqa o'zbek ziyolilari qatori yangi usul maktabi uchun darsliklar yaratdi. Uning bunday darsliklari jumlasiga "Adibus avval" va "Adibus soniy" kitoblarini kiritish mumkin.

MunavvarQorining " Adibus soniy" asarida ilm, axloq odob, kamtarlik, ilohiyot, yaxshi va yomon sifatlar xulqlar haqida ibratlik hikoyalar, pandu nasixatlar keltirilgan shulardan biri odob haqida shunday bayon etilgan:-

Bir kishi Luqmoni hakimdan: "Odobni kimdan o'rgandingiz?" – deb so'ramish.

Luqmoni hakim: "Odobni odobsizlardan o'rgandim", – deb javob bermishlar. Ul kishi yana so'ramishki: "Odobni odobsizlardan qanday o'rgandingiz?" Luqmoni hakim javob bermishlarki: "Doim kishilarning qilgan ishlariga va so'zlagan so'zlariga diqqat ila qarab yurdim. Kimdan yomon so'z eshitsam, ul so'zni hech bir so'ylamadim, kimdaki bir yomon ish ko'rsam, ul ishni hech bir qilmadim, shuning ila odobli bo'ldim".

Hissa: odobli bo'lurman degan kishi har narsaga izzat ko'zi ila boqub, izzat olur. Qaysi ish ko'ziga yaxshi ko'run-sa, ul ishni qilmoqg'a harakat qilur. Va qay ish ko'ziga yomon ko'rinsa, ul ishdan o'zini tortur. Bunday qilgan kishi, albatta, odobli bo'lur.<sup>3</sup>

Shu kabi ibratomus misollar orqali yoshlarga ta'lim bergen, ularga adab ilmidan saboq olmoq uchun o'z darsliklarini yaratgan.

XX asrning boshlarida o'zbek pedagogikasi taraqqiyotiga salomoqli hissa qo'shgan pedagoglarimizdan biri Abdulla Avloniy 1906 yoldayoq Mirobid mahallasida yangi usuldagagi maktab ochadi, uning bu maktabida diniy bilimlar bilan bir qatorda amaliy fanlardan ham saboq berilardi. A.Avloniy bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va shu sababdan o'z maktabida "axloq" darsini o'ta boshlaydi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq – odob to'g'risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: "... Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilishi mukammal "axloq" kitobining yo'qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o'zim muallimlar jumlasidan bo'lganligimdan manga

<sup>3</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/munavvarqori-abdurashidxonov/munavvar-qori-abdurashidxonov-adibus-soniy/>

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa – da o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko'tarmakni munosib ko'rdim".<sup>4</sup>

Pedagog maktablarda "axloq" darslarini tashkil qilishni o'z zimmasiga olgan holda, 1913 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli ta'lim – tarbiya masalalarini chuqur bayon qiluvchi asar yaratadi. Uning bu asarida xulqiga qarab kishilarning ikkiga bo'linishlari ("yaxshi xulq" va "yomon xulq"), tarbiya turlari, tarbiyani to'g'ri tashkil etish va boshqa qimmatbaho fikrlar berilgan. Jumladan, A.Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga alohida to'xtalib, tarbiyani to'rt turga bo'ladi: tarbiyaning zamoni; badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya); axloq tarbiyasi.

Abdulla Avloniy tomonidan tarbiyaning yuqoridagi tartibda aniqlanishi uni bolalarga xos xususiyatlardan chuqur xabardor ekanligidan darak beradi. U "Tarbiyaning zamoni" mavzusidagi bolalarga tug'ilgan kunidan boshlab tarbiya berish zarurligini hamda tarbiyani to'g'ri tashkil qilish uchun tarbiyachi, ota – ona, muallimlarning o'zlari ham tarbiyalangan kishilar bo'lishi lozimligini qayd qilib o'tadi. "Badan tarbiyasi" mavzusida insonning salomat bo'lishi uchun hamisha badan tarbiyasi zarurligini ko'rsatib, "... o'qimoq, o'qitmoq va o'rganmoq uchun insonga kuchlik kasalsiz jasad lozimdir", – deydi. Qolgan ikki – aqliy va axloqiy tarbiya mavzularida esa A.Avloniy o'qitishda ta'lim – tarbiyaning birligiga, tarbiyada esa o'qituvchilarning ibrat – namunasiga ahamiyat berish shartligini ta'kidlab o'tadi.<sup>5</sup>

A.Avloniy ham o'sha davriy faoliya ko'rsatgan boshqa ziyorolar qatori tashkil qilgan maktablari uchun darsliklar ham yozadi. Uning "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kabi darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari A.Avloniy o'z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo'lib tilga olgan va o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida pedagogika "Pedagogiya" – bola tarbiyasining fani demakdir, deb to'g'ri ta'rif bera olgan buyuk pedagog hamdir. "Maorifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat panjalarining orasida ezilur", deb yozadi u o'z asarlarida. Uning asosiy maqsadi millatni jaxolatdan ma'rifatla qutqarmoq lozimligidir.

Yana bir ma'rifatparvar jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy ham xalqim deb yonib yashagan, o'zining qisqa umri davomida millatni ma'rifatga yetaklagan shaxs sifatida tarixga qolgan. U o'zi tug'ilgan Samarqandda zamondoshi Abdulqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi mакtab ochadi. Yangi mакtablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

<sup>4</sup> A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asari.O'qituvchi nashriyoti.T.1998yil.3 bet.

<sup>5</sup> A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asari.O'qituvchi nashriyoti.T.1998yil

## PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

«Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq «Ikki emas, to'rt til lozim», degan maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. *"Boshqa millatning yosh bolalari mактабда, лекин бизнiki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomga tobe'dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur"*<sup>6</sup> deb yozgan o'z maqolasida Behbudiy. Uning asosiy maqsadi ota-onalarning bolasini ilmiga pul ajratib, ularni zamonaviy bilimlarni o'rGANISHGA, diniy ilmning mohiyatini anglagan holda, dunyoviy ilmlarga qunt qilmog'i avzalligini takidlagan, xalqga ilm va uning yo'lida sarflangan aqcha foydalilagini, arzimas molu dunyoga ruju qo'yib jaholat girdobiga g'arq bo'lmaslikni, millatni qulliqdan ma'rifat qutqarishini davr yoshlariga uqtirishga harakat qilgan.

Abdusalom Azimiyning ham "Ta'lrim va tarbiya" deb nomlangan maqolasida "Agarda har millatning istiqbolini bilmak xohlansa, ul millatni bolalarig'a nazar va... alarning sihatlariga va husni tarbiya va ta'limalarig'a katta e'tibor zarurdir" deb ta'kidlagan.

"Yerda bir qobiliyat, ya'ni ko'kartirmoq qobiliyati bordur. Lekin bu qobiliyat, agar yer yaxshi tarbiya qilinmasa, maydonga chiqmas yoki chiqsa ham maqsadga muvofiq chiqmas. Haydalmagan, chopilmagan bir yerga ekin ekilsa ko'karmas, giyoh ko'karsa ham samara bermas". "Adab va tarbiya" maqolasi muallifi Muhammad Said insonning "komil bo'lmog'i uchun yetti narsa, ya'ni ilm, nomus, vijdon, sa'y-harakat, g'ayrat, tarbiyat va ta'lim lozimligi", bularni shakllantirishda ota-onal hamda muallim birdek mas'ul ekani haqida bildiradi.

Buyuk ajdodlarimizni kelajak avlodlarga murojaati avvalo hurlikda, erkinlikda taraqqiy etish, millatning ravnaqi yo'lida ilm olish va o'z ilmi urfoni ila dunyoga mashala yoqmoq, munosib voris bo'lib ulg'aymoq sizdek iqtidorli, tafakkuri teran, hurfikrli yoshlarning burchidir.

O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan ekan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar

<sup>6</sup> Mahmudxo'ja Behbudiyning Yoshlarga bagishlangan maqolasi. «Oyna» jurnali, 1914 yil, 21-son, 390—391-betlar.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi."

**Xulosa** o'rnida shuni aytmoq joizki ilm ma'rifat yo'lida imkoniyatlar eshigining ochilishi buyuk davrning boshlanishidir. Bu davrni sizdek ilmli yoshlar boshlab beradi. Mamlakatimizda eng katta e'tibor, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. O'zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasining tashkil etilganligi, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy, kimyo fani bo'yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo'yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalarini tashkil etilishi, iqtidor va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash maqsadida amalga oshirildi. Qolaversa intilekti yuqori yoshlarmiz bugun maxsus yo'naltirilgan maktablarda, prezident maktablarida ta'lim olishmoqda. Fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon" "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlariga ega yoshlarmiz til sertifikatini olgan iqtidorli yoshlar davlat grandlari asosida oily ta'limga va xorijda taxsil olish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bular bungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarmizni ilm olishi va dunyo tanishi uchun imkoniyat eshiklarining ochilishi deb baholasak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish siz yoshlarning qo'lingizda.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh. M ning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyagi nutqi.
2. A. Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asari. O'qituvchi nashriyoti. T. 1998 yil. 3 bet.
3. Mahmudxo'ja Behbudiyning Yoshlarga bagishlangan maqolasi. «Oyna» jurnali, 1914 yil, 21-son, 390—391-betlar.
4. Internet ma'lumotlari.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]  
[AUTHORS INFO]**

Tosheva Dildora Iskandarovna pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD, Manzil: O'zbekiston, 00014, Buxoro, Piridastgir ko'chasi 2-uy

FRANSIYA TILI IMLOSINI SODDALASHTIRISH YO'LIDA OLIB  
BORILGAN IZLANISHLAR XUSUSIDA

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya**

**KIRISH:** Mazkur maqolada fransuz tilining asrlar mobaynida soddalashtirish va "gapiroayotganday yozish" tarafdarlari yoki unga hamfikr bo'limgan lingvist olimlar fikrlari keltirilgan. Hozirgi davrdagi fransuz tili rivoji uchun olib borilayotgan olimlarning ishlari o'rganilgan va ular haqida fikrlar bildirilgan hamda misollar yordamida dalillangan.

**MAQSAD:** "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqot jarayonida til nazariyasi, fransuz tilida orfoepik va orfografik normalarning fonetik, leksik, semantik hamda struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tahlil qilish, orfografik normalarning mohiyatini aniqlash, zamonaviy fransuz tili imlosining tarixiy ildizlari, shakllanishi va taraqqiy etishi, kodifikatsiya va imloni isloq qilish kabi ilmiy metodlardan foydalananilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Imloga oid bo'lgan o'zgartishlardan maqsad tildagi to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalari soddalashtirishdan iborat edi. Shuning uchun, so'zlar ichidagi talaffuz etilmaydigan ya'ni "keraksiz" undoshlar olib tashlandi. Noshirlar nihoyat, "i" ni "j" dan, "u" ni "v" harflaridan ajratdilar. Bu evolyutsiyalar tabiiy, hech qanday tortishuvlarsiz yuz elliq yil davomida uzluksiz amalga oshirilgan islohotlarning boshlanish nuqtasi edi.

**XULOSA:** Imloviy reformalardan har qanday til vaqtlar o'tib borishi bilan boyishi, eskirishi talaffuzda bo'ladigan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkin bo'lgan murakkab hodisa ekanligini ko'rish mumkin. O'tgan davrlar mobaynida imlo tuzatishlari soddalashtirilgan bo'lsa ham, eslab qolish qoidalari va eslab qolish uchun istisnolar mavjud bo'ladi.

**KALIT SO'ZLAR:** Jahon tilshunosligi, Fransuz akademiyasi, lotin tili, Pleyada, Molyer tili, orfografiya, so'zlarning etimologiyasi, transkripsiya, yangi imlo, fonologiya.

**Аннотация**

**ВВЕДЕНИЕ:** В этой статье представлены мнения лингвистов, которые поддерживают или не согласны с упрощением и «пиши, как мы

говорим» французского языка на протяжении веков. Изучены работы ученых, которые в настоящее время работают над развитием французского языка, высказаны и доказаны с помощью примеров мнения о них.

**ЦЕЛЬ:** Реализация задач, определенных в Постановлениях «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» и других нормативных правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В ходе исследования теория языка выявляет фонетические, лексические, семантические и структурно-семантические особенности орфографических и орфографических норм французского языка и их анализ, определение сущности орфографических норм, исторических корней, становления и развития современной французской орфографии, кодификации и научных методов, таких как реформа орфографии.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** Целью орфографических изменений было упрощение правил правильного написания и произношения на языке. Поэтому непроизносимые, то есть «лишние» согласные в словах были удалены. Издатели наконец отделили «i» от «j» и «u» от «v». Эти изменения стали отправной точкой реформ, которые проводились без каких-либо разногласий на протяжении ста пятидесяти лет.

**ВЫВОД:** Из реформ орфографии видно, что любой язык представляет собой сложное явление, которое со временем может обогащаться и устаревать, претерпевать изменения в произношении. Хотя с годами исправления орфографии были упрощены, по-прежнему существуют правила и исключения для запоминания.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Мировая лингвистика, Французская академия, латинский язык, Плеяда, язык Мольера, орфография, этимология слов, транскрипция, новое правописание, фонология.

### Annotation

**INTRODUCTION:** This article presents the opinions of linguists who support or disagree with the simplification and " write as we speak " of French over the centuries. The works of scientists who are currently working on the development of the French language are studied, opinions about them are expressed and proven with the help of examples.

**AIM:** Implementation of the tasks defined in the Resolutions "On measures to bring activities to popularize the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level" and other regulatory legal documents related to this activity.

**MATERIALS AND METHODS:** In the course of the study, the theory of language reveals phonetic, lexical, semantic and structural-semantic features of spelling and orthographic norms of the French language and their analysis, determination of the essence of spelling norms, historical roots, formation and development. modern French orthography, codification and scientific methods such as spelling reform.

**DISCUSSION AND RESULTS:** The purpose of the spelling changes was to simplify the rules for correct spelling and pronunciation in the language. Therefore, unpronounceable, that is, "extra" consonants in words were removed. Publishers finally separated the "i" from the "j" and the "u" from the "v." These changes became the starting point of reforms that were carried out without any controversy for one hundred and fifty years.

**CONCLUSION:** From the spelling reforms it is clear that any language is a complex phenomenon that can become enriched and outdated over time, and undergo changes in pronunciation. Although spelling corrections have been simplified over the years, there are still rules and exceptions for memorization.

**KEY WORDS:** World linguistics, French Academy, Latin language, Pleiades, Moliere's language, spelling, etymology of words, transcription, new spelling, phonology.

Biz bilamizki, doimiy ravishda tilshunos olimlar o'rtasida bo'ladigan orfografiya, orfoepiyaga oid munozarali bahslar bugungi kunning muammo si emas, balki, u uyg'onish davridan buyon mavjud. Imlo yoki orfografiya faqat so'zlarni yozish usuli bo'lib qolmay, bu so'zlashuv tilidagi so'zlarni transkripsiya qilish uchun standart sifatida ko'rila'digan qoidalar va foydalanish to'plamidir. Ammo, o'rta asrlarda, ya'ni XII-XIII asrlarda, yozuv mohiyatan og'zaki sivilizatsiyada ozmi-ko'pmi beqaror xotiraning o'ziga xos yordamchisi sifatida qaralar va uning asoslari mohiyatan fonologik bo'lib, kamchiliklar va ziddiyatlarga ega edi.

Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslар, tilshunoslар tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinislarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgan natijaga erisha olmadi. Chunki, o'rta asrlarda Fransiya bir biridan farq qiladigan ko'plab lahjalarni va dialektlarni o'z ichiga qamrab olgan edi. Shu bilan birga, lotin tili cherkov, olimlar, ulamolar va ta'lim tili bo'lsa-da, ammo, aholining katta qismi vulgar (xalq tili) til bulmish fransuz tilida so'zlashar edi[1].

Bir guruh fransuz shoirlar, jumladan Piyer de Ronsard, Joachim du Bellay, Jan-Antuan de Baïf, Etien Jodel, Remi Bello, Jan Dorat, Jak

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Peletier va Pontus de Tyardlar **Pleyada** atrofida birlashishishlaridan maqsad, o'zlarining adabiy asarlari va nazariy matnlari orqali fransuz tilini yangilash va takomillashtirish, uning lotin tilidan ozod qilinishi, fransuz tilini lotin kabi olivjanob va adabiy tilga aylantirish edi. Birinchilardan bo'lib, Jak Peletye du Mans "*écrire comme on parle*" ya'ni "**gapisirayotgandek yozish**" kerak, deya ta'kidladi, undan keyin Lui Megret etimologik imlo tarafdoqlaridan farqli o'laroq ularni "lotinlar" va aksincha, fonologik imloni himoya qiladiganlarni "zamonaviylar" deb atadi. Fransuz yozuvchisi, tilshunos olim Fransua Rablega kelsak, u 1552 yilda «qadimgi senzura »ni tanqid qilib o'zining grafik tizimini yaratdi. Ilgari hamma o'ziga yoqqan uslubda yozar edi, F.Rable, Mishel de Monten yoki, hatto, Jan Baptist Molyerning ham o'z imlosi bor edi, ular bir asardan boshqasiga o'zgarib turardi.

Shu bilan birga, Paris-Sorbonne universiteti professori Mirey Gushon "Imlo so'zlarning etimologiyasini aks ettirishi kerak va u boshidan kechirgan fonetik buzilishlarni qayd eta olishi kerak"[2], deb ta'kidlagan nazariyasi yuqorida fikrlarni to'ldiradi. Bunga misol tariqasida escliffe- éclisse, medicin-médecin, dipner-dîner kabi so'zlardagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin.

Ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, dastlab, 1635 yil Kardinal Rishelye tashabbusi bilan yaratilgan Fransiya akademiyasining vazifasi va maqsadi: "*Tilimizga ma'lum qoidalarni berish va uni sof, ravon, to'g'ri talaffuz qilish hamda san'at va fanlar bilan shug'ullanishga qodir qilish ustida ishlashdir*" [3] deb yozilganligiga guvoh bulamiz. Shundan so'ng akademiya fransuz tili orfografiyasiga oid imlo qoidalari tug'risidagi o'zgarishlarni kiritgan holda uni 9 marta nashr ettirdi. Mazkur Akademiyada mashhur akademiklar : La Fonten, Kornel, Rasin yoki Bualo va ko'plab olimlar ishtirot etdilar.

Fransuz imlosi 1650-1835 yillar oralig'ida tabiiy ravishda ancha o'zgardi. O'sha davrdagi o'zgarishlarni "*O'rtacha har o'n ikki yilda, bizning yozuvimizning muhim jihat o'zgarib borardi*" deya ta'kidlaydi tilshunos va grammatik olim Andre Chervel. Haqiqatdan ham, agar biz XVI-XVII asrlar mualliflarining matnlarini o'qisak, ularning asl nashrlarda hozirgi imlodan sezilarli farqlar mavjudligiga guvoh bulamiz. Quyidagi ikkita misol fikrimizga asoli dalil bo'la oladi: mashhur yozuvchi Fransua Rable:(1535 yil) «*Cy n'entrez pas, hypocrites, bigotz, Uieulk matagotz, marmiteux, borsouflez, Torcoulx, badaux, plus que n'estoient les Gotz, Ny Ostrogotz, persecuteurs de magotz* [4]...», yoki bir asrdan so'ng faylasuf Dekart (1637) asarlarida quyidagi misol ham: «*Pour moy ie n'ay iamais presumé que mon esprit fust en rien plus parfait que ceux du commun: mesme i'ai souuent souhaité d'auoir la pensee aussi prompte, ou l'imagination aussy nette et distincke, ou la memoire aussy ample, ou aussy presente, que quelques autres*». Bu misollar fransuz orfografiyasi naqadar

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

o'zgarishga yuz tutganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin, albatta bu o'z navbatida orfoepiya yani ushbu o'zgarishga yuz tutgan so'zlarning to'g'ri talaffuziga ham bevosita ta'sir etgan. Bu XVI asrdagi diniy islohotlardan ya'ni protestant islohoti imonlilar uchun Injilni milliy tilda o'qishni majburiyat qilib qo'yganidan boshlandi. Chunki, hamma joyda maktablar ochilib, bolalarni o'qishga o'rgatishardi, bu bilan asta-sekin hamma uchun majburiyatga aylanib borayotgan juda murakkab yangi imloga o'tildi.

Sorbonna Nouvelle universitetining fransuz tilshunosligi va ijtimoiy lingvistikasi professori Mariya Kandea bu haqda shunday deydi "Agar biz Molyerni qanday bo'lsa, shunday qilib o'rgatsak, fransuz tiliga katta xizmat qilgan bo'lardik. Bu hozirgi fransuz tili endi Molyerning tili emasligini aniq ko'rsatardi". Chunki o'sha davrdagi haqiqiy Molyer tili mazkur o'zgarishlardan keyin juda arxaik bo'lib tuyulishi tabiiydir. Misol uchun, Molyer tilida **s** so'z o'rtasida "ʃ" belgisi singari yozilardi (masalan, **saucʃes**). Molyer ham barcha zamondoshlari kabi **i** va **j**, **u** va **v** ni harflarini bir biridan ajratmagan.

Masalan :

**Veuve** - beva va **trouve** - topish

**monnaie** - pul va **joie** - quvonch

kabi so'zlar bir-biriga qofiyalaganligini ko'rish mumkin. Buning sababi shundaki yuqorida ko'rsatilgan mazkur so'zlar o'sha davrda **monnwè** va **jwè** tarzida talaffuz qilinganligi tufayli deyish mumkin.

Shu bilan birga yuqorida keltirilgan misollardagi imloga oid bo'lgan o'zgartishlardan maqsad tildagi to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalarini soddallashtirishdan iborat edi.

Mazkur misollar ham :

«**poictrine**» (hozirda *poitrine*), «**cognoissance**» (*connaissance*), «**escrire**» (*écrire*) kabi so'zlar ichidagi talaffuz etilmaydigan undoshlar olib tashlandi. Sal o'tib, noshirlar nihoyat "i" ni "j" dan, "u" ni "v" harflaridan ajratdilar. Bu evolyutsiyalar tabiiy, hech qanday tortishuvlarsiz yuz ellik yil davomida uzluksiz amalga oshirilgan islohotlarning boshlanish nuqtasi edi deb ayta olamiz. XVII asrning tarixchisi Fransua Eudes de Mezeray «*La compagnie (Académie) déclare qu'elle désire suiure (suivre) l'ancienne orthographe qui distingue les gents de lettres d'avec (avec) les ignorants (ignorants) et les simples femmes.*» deb yozadi. Ta'kidlangan ushbu jumlada o'sha davrda **suivre** (ergashmoq) fe'li **suiuvre** tarzida yoki **avec** (bilan) **auec**, **ignorants** (bilimsiz) **jgnorants** so'zlarida unli va undosh harflari ajratilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

2001 yilda Belgiya, Frantsiya va Shveytsariyaning uchta assotsiatsiyasi fransuz tilining yangi imlosi (RENOUVO) tarmog'ini yaratdi va tavsiya etilgan imloning Vadémécum dasturini ishlab chiqishdi, uning sarlavhasi **Le**

**millepatte sur un néufar bo'lib**, unda 2000 ga yaqin so'z o'zgarishga yuz tutdi. Bu 2009 yil iyun oyida tavsiya etilgan zamonaviy imlo "Grand Vadémécum" tomonidan almashtirildi, u texnik va nodir so'zlarni birlashtirish orqali 5000 ta so'zni o'z ichiga oladi.

2009 yilda nashr etilgan *Le Nouveau Petit Robert* lug'at kitobining nashrida zamonaviy imlolarning 61,3 foizini so'zini qamrab oldi. Masalan, pizzéria so'zi imlosining o'rniga pizzeria kabi yozish qabul qilindi, des mafiosos (mafiozlar) o'rniga des mafiosi, des après-midis (so'zi muntazam s ko'plikda), un compte-goutte (s harfisiz birlikda), millepatte (qo'shilib yoziladigan), imbécilité (bitta 1 harfi bilan yozilishi), charriot (so'zida aksincha ikkita r harfi bilan yozilishi)... kabi qator imloviy o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oldi. Bunday imloviy o'zgarishlarni ko'plab lug'atlar jumladan *Mari Eva de Villersning Multidictionnaire* lug'ati, yangi imlo ta'sir qilgan atamalarni qavs ichiga, o'z navbatida ajratib ko'rsatgan bo'lsa *Le Petit Larousse* yangi imloni to'g'ridan-to'g'ri yozuvlarga birlashtirib ko'rsatdi deya olamiz.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan davrlar mobaynida imlo tuzatishlari soddalashtirilgan bo'lsa ham, eslab qolish qoidalari va eslab qolish uchun istisnolar mavjud bo'ladi. Til mutaxassislari, shuningdek, berilgan yechimlar yuqorida aytib o'tilgan holatlarda bo'lgani kabi, tengsiz qo'llanilishini ham bilamiz.

Har doim islohotga intiluvchilar va har qanday islohotning dushmanlari bo'ladi va til yozuv paydo bo'lganidan beri bo'lgani kabi, ishtirokchilarga qaramay yoki ular bilan birga rivojlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mireille Huchon. *Histoire de la langue française*. Poche. 2002
2. Académie française, Article 24 des statuts.
3. Jacques Leconte/Philippe Cibois. In *Que vive l'orthographe!* p. 94/95
4. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari
5. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Fransuz tili orfografiyasiga uyg'onish davri tilshunos olimlari tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida." "Canada" International conference on developments in education, sciences and humanities. Vol. 9. No. 1. 2023.
6. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Orfoepiya va zamonaviy fransuz tilining orfoepik normasi xususida." International scientific conferences with higher educational institutions. Vol. 1. No. 05.10. 2023.
7. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslar ahamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlari." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31.31 (2023).

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

8. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 30.30 (2023).
9. Radjabov, Ruslan. "Orfografiya Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar: Orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 27.27 (2023).
10. Ruslan, Radjabov. "Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises." *Gospodarka i Innowacje.* 42 (2023): 726-730.
11. Ruslan, Radjabov. "À propos du terme orthoépie." *Gospodarka i Innowacje.* 42 (2023): 731-735.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]  
[AUTHORS INFO]**

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich, o'qituvchi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Hamza ko'chasi 96

<https://orcid.org/0000-0002-1565-1119>; rouslanrich@gmail.com

OLIY TA'LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN  
FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qurbanova O'lmasoy Usmonovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya**

**KIRISH:** maqolada xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim va maktab integratsiyasi masalalarini yoritishda hozirda tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan va jamiyatda ta'lim tarbiyaning barqaror samarali tizimini yaratgan AQSH, Fransiya, Angliya, Germaniya, Finlyandiya davlatlari ta'limi tajribalari mamlakatimiz ilmiy – uslubiy asoslari, boy amaliy an'analari va yangi zamon talablariga tayangan holda tahlil etiladi.

**MAQSAD:** rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimi tahlili asosida mamlakatimiz milliy an'ana va qadriyatlarimizga tayangan holda ta'lim tizimi integratsiyasini oshirish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Inson kapitali tug'ma qobiliyat, talant, ta'lim integratsiyasi, qiyosiy tahlil qilish.

**XULOSA:** O'zbekiston taraqqiyotining bugungi davrida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish sohasida turli yo'naliishlarda ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berildi. Uni keljakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

**KALIT SO'ZLAR:**

Oliy ta'lim, inson kapitali, integratsiya jarayonlari, adaptatsiya, xorijiy tajriba.

**Аннотация**

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье освещены вопросы интеграции высшего образования и школ в зарубежных странах, образовательный опыт США, Франции, Англии, Германии, Финляндии, которые в настоящее время быстро развиваются и создали в обществе устойчивую и эффективную систему образования. Анализируется научно-методическая база нашей страны, богатая она с учетом практических традиций и современных требований.

**ЦЕЛЬ:** повысить интеграцию системы образования на основе анализа системы высшего образования развитых зарубежных стран, опираясь на национальные традиции и ценности нашей страны.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** человеческий капитал, врожденные способности, талант, образовательная интеграция, сравнительный анализ.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** в современных условиях реализуется ряд реформ в сфере высшего образования нашей страны. Данная статья посвящена некоторым аспектам педагогических идей в системе высшего образования. Всестороннее его изучение проведение фундаментальных исследований в будущем является одной из самых ближайших задач.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** в современном развитии Узбекистана работа ведется по различным направлениям в области развития системы высшего образования, и некоторые ее аспекты максимально освещены в статье. Одной из ближайших задач является ее изучение в качестве комплексного фундаментального исследования в будущем.

#### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Высшее образование, человеческий капитал, интеграционные процессы, адаптация, зарубежный опыт.

#### Annotation

**INTRODUCTION:** the article covers the issues of higher education and school integration in foreign countries, the educational experiences of the USA, France, England, Germany, Finland, which are currently developing rapidly and have created a stable and effective system of education in society, the scientific and methodological foundations of our country, rich it is analyzed based on practical traditions and modern requirements.

**AIM:** to increase the integration of the education system based on the analysis of the higher education system of developed foreign countries, relying on the national traditions and values of our country

**MATERIALS AND METHODS:** Human capital innate ability, talent, educational integration, comparative analysis.

**CONCLUSION:** In today's development of Uzbekistan, work is being carried out in various directions in the field of development of the higher education system, and some of its aspects have been covered in the article as much as possible. It is one of the next tasks to study it as a comprehensive fundamental research in the future.

**DISCUSSION AND RESULTS:** In modern conditions, a number of reforms are being implemented in the field of higher education in our country. This article is devoted to some aspects of pedagogical ideas in the higher education system. Comprehensive study of it Conducting fundamental research in the future is one of the most immediate tasks.

**KEY WORDS:**

Higher education, human capital, integration processes, adaptation, foreign experience.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida belgilanishi ham beziz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy ta'limning maqsadi, faqat bilim olish emas balki qobiliyat va fazilatlarni o'stirish, inson karitalini rivojlantirishga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ta'lim sohasidagi keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga ko'tardi. Oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarini samarali rivojlanishi oliy ta'lim xizmatlari sub'ektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiya yangiliklarini kiritish asosidagina mamlakatni jahon xo'jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash respublikamizni ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak" <sup>7</sup> deb ta'kidlab o'tdi.

Yangi industrial jamiyat nazariyasi namoyondasi Dj.Gelbreyt o'z vaqtida industrial tizim sharoitida o'qitilgan va o'rgatilgan kadrlar tayyorlashning hal qiluvchi omiliga aylangan va u yuqori rivojlangan ta'lim tizimiga bog'liq, deb hisoblagan. S.Fisher esa, inson kapitali tushunchasiga to'xtalib, "insonga daromad olib kelishi mumkin bo'lgan qobiliyat inson kapitalidir. Inson kapitali

<sup>7</sup>Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 46 b.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

tug'ma qobiliyat, talant va shu qatorda o'rganilgan (orttirilgan) kabi klassifikatsiyalashuvga (tasnif) ega"<sup>8</sup>, deb hisoblagan.

B.M.Genkin va B.G.Yudinlar o'z tadqiqotlarida: inson kapitali – inson qobiliyatlarini tashkil etuvchi komponentlar (jismoniy salohiyat, yaratuvchanlik mahorati, bilim va ko'nikmalar, mahorat, harakatchanlik) orqali namoyon bo'lib, uy xo'jaligi, korxona va mamlakatning daromad manbaini shakllantiradi, deya fikr yuritishgan<sup>9</sup>. Amerikalik iqtisodchi E.Denison 1929-1982 yillar oralig'idagi Amerika iqtisodiyotini tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan xarajatlar faktori birlamchi omil emas, balki ularning natijaviy sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Denison iqtisodiyotda ishchi kuchi sifatini yuqori o'ringa qo'yadi. Uning izlanishlari xulosasiga ko'ra, ishchi kuchi sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy faktor bu ta'lim tizimi hisoblanadi, ya'ni ta'lim tizimi inson kapitali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil, hisoblanadi. M.K.Meldaxanova, inson kapitaliga mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi bilim, malaka, ko'nikmalar orqali jamg'arilgan inson resursi, deb ta'rif beradi<sup>10</sup>. K.S.Muxtorova va E.S.Detskovkaya ishlarida davlat siyosatining inson kapitaliga yo'naltirilganligining mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat orqali mamlakat aholisi hayoti, turmush sifati va darajasi yaxshilanadi, deb hisoblanadi<sup>11</sup>.

Zero ta'kidlash joizki, mamlakatimizda davlat rahbariyati tomonidan ta'lim xizmatlari tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirish katta e'tibor berilmoqda. Ammo xozirgi bozor munosabatlari sharoitida oliy ta'lim xizmatlari tizimi oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari talablariga moliyaviy samaradorlik jihatdan uning ta'lim xizmatlari tizimini sifati jihatdan va undan foydalanish oliy ta'lim olishga intiluvchilarni talablarini qondiradigan darajada bo'lishi kerak.

Buning uchun:

- bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida jahon xo'jaligi bozori talablari asosida uni o'z navbatida tartibga solib turish;
- milliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish iqtisodiy mintaqalardan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur;

<sup>8</sup>Fisher I.The Nature off Capital and Income. – L.,1927. – P.62

<sup>9</sup> Генкин Б.М. Экономика и социология труда: Учеб.для вузов.5-е изд., доп.М.:Норма, 2003г.,-416с

<sup>10</sup>Мельдаханова М.К. Современная концепция человеческого капитала в экономической теории // Формирование и развитие конкурентоспособного человеческого капитала в Казахстане: сборник материалов Международной научно-практической конференции / под.ред. О. Сабдена и Н.К. Нурлановой. – Алматы: Институт экономики КН МОН РК, 2010 г. – С. 49-53

<sup>11</sup> Мухтарова К.С. Распределение доходов и бедность в переходной экономике. – Алматы, 2001 г. – 223 с.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

• oliy ta'lim tizimini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqlikda olib borishni tashkil etishni doimiy ravishda tashkiliy-iqtisodiy va ta'lim jarayonlarini tashkil etish doimiy ravishda oliy ta'lim tizimini tashkil etuvchi takomillashib borishini ta'minlovchi muassasalar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

Jahon oliy ta'lim tizimini so'nggi 30-40 yil ichida rivojlanishini moliyalashtirishni bir necha modellari tashkil topdi. Shulardan oliy ta'lim tizimini birinchi moliyalashtirish modeli neoliberalizm modeli bo'lib, u M.Fidlin, F.Chaba va F.Xask tomonidan o'rganilgan bu modelga asosan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida qo'llaniladi. Jumladan, XXI asrda AQSH oliy ta'lim tizimi xarajatlarini 42,5% byudjet mablag'lari hisobiga, shu jumladan federal byudjet hisobiga 27,5 % mahalliy shtat byudjeti hisobiga 2,6% qoplangan. Davlat oliy o'quv yurtlari 50% moliyaviy mablag'larni shtat boshqaruvidan moliyalashtirilsa xususiy oliy o'quv yurtlari bunday huquqga ega emaslar. Bu model vakillari oliy o'quv yurtlari va shtatda joylashgan korxonalar xamkorlikda oliy ta'lim tizimida mavjud muammolarni hal etadilar.

Ammo oliy o'quv yurtlarini avtonom holda mustaqil bo'lib faoliyat yuritishlari ularda shtat byudjeti mablag'larini ishlatishni nazorat qilishni talab etadi. Yevropaning g'arb mamlakatlarida bozor iqtisodiyotini transformatsiyalanishi munosabati bilan oliy ta'lim xizmatlari o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish muammosini hal etish oliy ta'lim inson bilmini faoliyatida asosiy vositaga aylanishi bilan bog'liq Bolon jarayoni umumiyl muammo bo'lib uni birgalikda xal etishni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning ikkinchi modeli bo'lib oliy ta'lim sohasida ijtimoiy bozorni shakllanishi bo'lib, uning nazariy asosini gumonlashgan xalqparvar kapitalizm tashkil etadi. Uning asoschilari Dj.Shumpetr, Dj. Giddens va X.Mayer hisoblanadi. Bu model Kanada, G'arbiy Yevropaning Angliya, Ispaniya va Italiyada qo'llaniladi. Oliy ta'lim tizimining bu model davlatning faol yordami bilan va shaxsning ta'lim olishdagi, karera qilishdagi javobgarligiga asoslanadi. Bu oliy ta'lim tizimi modeli qisman bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtirish darajasini kamayib borishiga va xususiy moliyalashtirishni o'sib borishiga asoslanadi.

Bu usulga asoslangan holda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi moliyalashtirish manbalarini o'zgarishini Angliya oliy o'quv yurtlari misolida ko'rish mumkin. Hozirgi davrda moliyalashtirishning 33 % davlat byudjeti hisobiga bo'lsa qolgan 67 % xususiy manbalar hisobiga (fuqarolardan oliy ta'lim olish uchun tushgan tushumlardan, xususiy firmalar o'z xodimlarini o'qitish uchun to'lagan to'lovlaridan tashkil topmoqda).

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning uchinchi modeli bozor iqtisodiyotiga, oliy ta'lim tizimida bozor munosabatlariga qarshi model bo'lib uni nazariy jihatdan Yevropa (Bryussel) va Germaniya (Frankfurt) ta'lim xodimlari ilmiy tadqiqot kasaba markazi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu ta'lim modeli G'arbiy Yevropaning Germaniya, Norvegiya, Daniya, Fransiya, Shvesiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Ushbu ta'lim tizimi modeli oliy o'quv yurtlarini xususiylashtirishga qarshidir. Shuning uchun ham Germaniyada ko'pchilik oliy o'quv yurtlari davlatniki bo'lib o'qitish va stipendiya to'lash davlat tomonidan amalga oshiriladi. Talabalarning 30 % yordam puli oladilar yoki federal byudjetdan u 33 % ni, yer byudjetidan 44,6 % ni va jamoadan 22,4 foizni tashkil etadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish ikki xususiyatga markaziy boshqaruvga va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashni bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda ularni diversifikatsiyalashtirishga asoslanadi. Markazlashtirilgan holda oliy o'quv yurtlarini boshqarishni amalga oshirilishining sababi oliy ta'limni har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini raqobatbardoshligini jahon bozorida ta'minlashdan iborat.

Shu bilan birga oliy ta'lim tizimini bozor munosabatlari sharoitida markazdan boshqarish zarurligi shundan iboratki ularda asosan oliy ta'lim davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilganligi sababli bu mablag'lardan foydalanishni nazorat qilishni zarurligidir.

Oliy ta'limni markazlashtirilgan holda boshqaruvi xorijiy mamlakatlarning umummilliy siyosatlaridan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurtlarining strategiyalar ishlab chiqiladi va zarur bo'lgan yo'naliishlar bo'yicha kadrlarni tayyorlash zarurligidan kelib chiqqan holda ularni qo'shimcha ravishda moliyalashtiriladi. Mintaqaviy boshqaruv tashkilotlari oliy ta'lim tizimini rivojlantirish rejalarini shu mintaqqa rivojlanish rejalariga qo'shadilar.

Har bir mamlakat oliy ta'lim tizimini rivojlantirish siyosati shu mamlakat siyosatiga bog'liq. Jumladan Angliya davlatining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish siyosati asosan universitet va oliy o'quv yurtlarida davlat tomonidan moliyalashtirishkamaytirib borishga va boshqa nodavlat sub'ektlaridan pul tushumini oshirishga qaratilgan bo'lib, universitet va oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini mehnatlariga haq to'lashda ularning ilmiy faoliyatlariga qarab farqlanishiga asoslanadi. Ularning mehnat xaqlari belgilanishi talabalar sonidan va o'qitish darajasiga qarab, ilmiy-tashkiliy ishlardan band bo'lganlarni moliyalashtirish faqat universitet darajasida amalga oshirilishiga asoslanadi.

Fransiya davlat universitetlari mustaqil bo'lib, ular bilan davlat o'rtaсидаги munosabatlar kelishilgan bitim (kontrakt) asosida tartibga solib

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

boriladi. Bu kelishuv bitimida universitet tomonidan oliy ta'limni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha davlat oldidagi majburiyatlarini bajarish davlat tomonidan esa moliyalashtirish va professor-o'qituvchilar personalni kengaytirish majburiyatları olinganligi qayd etiladi. Davlat ta'lim tizimi markazlashtirilgan va qabul qilingan qonun va turli yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan instruksiyalar asosida boshqariladi. O'quv rejali olyi ta'lim vazirligi va oliy o'quv yurtlari direksiysi tomonidan boshqariladi.

Avstriya mamlakatida esa amalga oshiriladigan vazifalar ta'lim vazirligi bilan universitet rahbariyati bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Avstriya oliy ta'lim vazirligi oliy ta'lim xizmatlari bozorida mutaxassislarga bo'lган talabni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lган yo'nalishlar bo'yicha bo'lган mutaxassislarga bo'lган talabni o'rganish asosida universitetlarga shu yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga buyurtma beradi va uni moliyalashtiradi. Avstriyada universitetlar bozor talablari asosida oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lган innovatsiya yutuqlarini qamrab olgan zarur bo'lган o'qitish dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etadilar va ular bunga javobgar xisoblanadilar.

Respublika oliy ta'lim tizimining universitet va institutlarini Xalqaro ta'lim institatlari hamda mahalliy uzluksiz ta'lim muassasalari bilan o'quv-uslubiy, ilmiy, amaliy va ularni malakalarini oshirish bo'yicha aloqalarini kuchaytirish zarur.

Xalqaro ta'lim instituti 1919 yilda tashkil topgan bo'lib uning asosiy vazifasi oliy ta'lim yo'nalishida mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish ularga akademik erkinlikni tashkil etish, xalqaro ta'lim yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash o'qituvchilarni malakalarini oshirish, xalqaro darajada ilmiy ishlarni chop etish vazifalarini oshiradi. Shu bilan birga xalqaro konferensiyalarni, axborot markazlarini va oliy ta'lim yo'nalishida maslahat xizmatlarini ko'rsatadi. Xalqaro ta'lim institutining asosiy vazifasi yuqori darajada professoro'qituvchilarni 250 ta'lim dasturlari asosida malakalarini oshirishni ta'minlamoqda.

Xalqaro ta'lim institutining 6 qit'ada 19 filiali 1400 hamkorlari va a'zo tashkilotlari, 42500 ta ishtirokchilari, 200 ta dasturi 183 mamlakatda mavjud. Umuman dunyoda institutning 19 ofisi bo'lib Gonkong, Vengriya, Meksika, Rossiya, Tayland, Vietnam, Ukraina, Misr, Xitoy, Indoneziya va Efiopiyada va boshqa mamlakatlarda joylashgan<sup>12</sup>.

Angliyada xorijiy davlatlardan talabalarni jalb etishda Buyuk Britaniya ta'lim Kengashi amalga oshiradi. Buyuk Britaniya Kengashiga bir yilda 8,5 mln.

<sup>12</sup>Xalqaro ta'lim institatlari. <http://www.iie.org//Content/NavigationMenu/AboutIIE1/Mission and Profile/MissionandProfile.htm>

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

kishi qatnashishi kasbiy va akademik yo'nalishlarida 1,3 mln. kishi imtixon topshiradilar. Buyuk Britaniya kengashi davlat tomonidan xorijiy mamlakatlardan o'qish uchun jalb qilish bilan shug'ullanadilar. Agarda 2001 yil 100,0 ming xorijiy talabalar jalb etilgan bo'lsa 2006-2007 o'quv yilida bu ko'rsatkich 356080 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich rejalashtirilgan ko'rsatkichga nisbatan 10000 kishi ko'pdir.

Buyuk Britaniyada xalqaro ta'lif Kengashi ham faoliyat ko'rsatadi. Unga 523 tashkilot a'zo bo'lib, u Buyukbritaniyadagi barcha universitetlarning o'ziga qamrab olgan. Kengash diplomdan keyingi davr bo'yicha 217 o'quv yurtlarini, 174 oliy o'quv yurtlarini 65 talabalar kengashini va 61 boshqa tashkilotlarni qamrab olgan. Fransiya davlati xorijiy talabalar soni bo'yicha uchinchi o'rinda bo'lib Kampyusfrans (Campusfrance) deb ataladi.

Bu tashkilot 1998 yilda tashkil topgan bo'lib, u ta'lif va tadqiqot vazirligi, tashqi va yevropa ishlar vazirligi nazorati ostida quyidagi vazifalarni bajaradi.

Fransiya oliy ta'lif tizimini chet ellarda targ'ib etish; o'qishga borayotganda zarur bo'lgan rahbariyat xujjatlarini tayyorlashni yengillashtirish, sifatli dasturlar asosida o'qishni xorijiy mamlakatlarda kafolatlash ishlarini olib boradi.

Fransiyada o'qishni istagan xorijiy mamlakatlar yoshlarini yagona sifatli dastur asosida o'qishni kafolatlanishi bo'yicha yagona umumiy axborotlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. 2008 yilda bu tashkilot a'zolari bo'lib 220 ta Fransiya institutlari hisoblangan. Uning 2015 yilda 114 xorijiy mamlakatlarida 200 dan ortiq ofislari mavjud. Uning asosiy vazifasi xorijiy mamlakatlar fuqarolarini zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, Fransiya dunyo bo'yicha xorijiy talabalarni qabul qilish bo'yicha 3 o'rinda turadi: dunyo bo'yicha umumiy xorijiy studentlarning 7 foizini tashkil etadi. 2013-2014 o'quv yillarda bu yerda 295 ming xorijiy talabalar tahsil olgan, shu jumladan 218 ming (74 foizi) nafari universitet talabalari hisoblanadi. Fransiya tashqi ishlar, ta'lif va tadqiqot vazirligi tashabbusi bilan 1998 yilda EduFranse (Agene EduFranse) agentligi tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi Fransiya davlatini xalqaro ta'lifda faol qatnashuvini ta'minlash hisoblanadi. U Fransiya ta'lif tizimi mohiyatini xorijiy mamlakatlarga yoyish, xorijiy talaba va tadqiqotchilarga yaqindan yordam berish, konsalting faoliyatini ayniqsa ta'lifda axborotlar texnologiyasini xizmatlarini rivojlantirishdan iborat. Fransiyada 1960 yilda EGIDE akademik dasturi tuzilgan bo'lib u 2007 yildan boshlab KampyusFrans a'zosidir. Uning asosiy vazifasi xorijiy talabalarga, stajyor va tadqiqotchilarga akademianing

dasturini o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi. Uning akademik dasturini Fransiya tashqi ishlar vazirligi moliyalashtiradi.

Germaniyada xorijiy mamlakatlar talabalarini jalb etishda Germaniyaning akademik almashuv agentligi va Gets DAAD instituti amalga oshiradi.

Germaniyaning akademik almashuv xizmati 1925 yilda tashkil topib Germaniya oliy o'quv yurtlarini o'zini-o'zi boshqaruvini tashkil etadi. Bu tashkilot xorijiy studentlarga va o'zining studentlariga stipendiya berish Germaniya oliy o'quv yurtlarini internatsionalizatsiyalanishiga yordam berish, germanlashgan va nemis tilini qo'llab-quvvatlash va ta'lim tizimida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilishdan iborat. Bu tashkilot o'zining maqsadini amalga oshirishda turli 200 dastur asosida amalga oshiradi.

Ushbu tashkilot talabalar va tashqi madaniyat siyosatini olib borishda hamda Germaniyada ta'lim va ilmni rivojlantirish siyosatini olib boradi. Shu tashkilotning 15 xorijiy vakolatxonasi va 56 axborotlar markazi faoliyat olib boradi hamda yiliga 100,0 ming stipendiya beriladi. Bu tashkilotni Germaniya tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiy aloqa va rivojlanish federal vazirligi, ta'lim ilm vazirligi, Yevropa Ittifoqi, Iqtisod va texnologiya federal vazirligi moliyalashtiradi. Shu bilan birga uni moliyaviy jihatdan texnika aloqali jamiyatni NATOning ilm bo'yicha kengash, nemis ilmini qo'llab-quvvatlash fondi va boshqa ko'p tashkilotlar moliyaviy yordam ko'rsatadilar. Germaniyaning Gete instituti ham 1951 yildan buyon madaniy xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda.

Aytish mumkinki, mahalliy Oliy ta'limni rivojlantirish shakllarini bozor talablari asosida tashkil etish va xalqaro oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvida milliy an'analaridan kelib chiqish; oliy ta'limni jahon andozalari asosida rivojlantirishning yangi integratsiyalashuvi andozalariga asoslanish; oliy ta'lim oliygohlarida olingan bilim diplom sifatida emas balki talabalarning olgan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llashiga qarab baho berish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-soni "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 06.11.2020 yil, <https://lex.uz/docs/5085999>
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 46 b.
3. Fisher I.The Nature off Capital and Income. – L.,1927. – P.62

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

4. Genkin B.M. Ekonomika i sotsiologiya truda:Ucheb.dlya vuzov.5-ye izd., dop.M.:Norma, 2003g.,-416s
5. Meldaxanova M.K. Sovremennaya konsepsiya chelovecheskogo kapitala v ekonomiceskoy teorii // Formirovanie i razvitiye konkurentosposobnogo chelovecheskogo kapitala v Kazaxstane: sbornik materialov Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii / pod.red. O. Sabdena i N.K. Nurlanovoy. – Almatы: Institut ekonomiki KN MON RK, 2010 g. – S. 49-53
6. Muxtarova K.S. Raspredelenie doxodov i bednost v perexodnoy ekonomike. – Almatы, 2001 g. – 223 s.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]**  
**[AUTHORS INFO]**

Qurbanova O'lmasoy Usmonovna pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
 (PhD, Manzil: O'zbekiston, 00014, Buxoro, Piridastgir ko'chasi 2-uy

<https://orcid.org/0000-0003-3561-8583> qurbanova@gmail.com

## TALABALARING REPRODUKTIV SALOMATLIGI MUAMMOLARI

Sobirov Abdulaziz Abdurozikovich

Buxoro davlat pedagogika institute

**Annotatsiya**

**KIRISH:** Maqolada reproduktiv salomatlik muammosi pedagogika universitetining birinchi kurs talabalarining moslashuvi mezoni sifatida ko'rib chiqiladi. Birinchi kurs talabalarining sog'lig'iga bo'lgan munosabatini o'rganish natijalari tasvirlangan. Natijalarni tahlil qilishda adekvatlik mezonlariga javob beradigan 4 sohadagi ko'rsatkichlar hisobga olindi – o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatning nomuvofiqligi: kognitiv, xulq-atvor, hissiy, qiymat va motivatsion.

**MAQSAD:** Reproduktiv salomatlik muammosi juda ko'p sonli nazariy va uslubiy yo'nalishlarni taqdim etadigan ilmiy bilimlarning umumiy ahamiyatga ega sohalaridan biridir. "Salomatlik" fenomeni turli fanlarning chorrahasida o'rganiladi, chunki u fanlararo xarakterga ega. Shu bilan birga, "reproduktiv salomatlik" ning nazariy va uslubiy muammolari to'liq hal qilinmagan. Har qanday odamning hayotida doimo stressli, asabiy va tanqidiy voqealar sodir bo'ladi. Bolalarda ham, kattalarda ham neyro-ruhiy buzilishlarning keskin o'sishiga ko'p jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning beqarorligi ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, turli xil ijtimoiy o'zgarishlar yoshlarga ta'sir qiladi va talabalar, bir qator mutaxassislarning fikriga ko'ra, psixogen omillar mavjudligi sababli xavf guruhiga kiritilishi mumkin. Universitetda o'qish mакtabga nisbatan sezilarli farqlarga ega va ob'ektiv ravishda ko'proq zo'riqish va hissiy barqarorlikni talab qiladi, bu esa birinchi kurs talabalarining reproduktiv salomatligini buzilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda inson salomatligini mustahkamlash, to'laqonli rivojlanish va xavfsiz ta'lim makonini shakllantirish, yosh avlodlarning ijtimoiy, shaxsiy va axloqiy tanazzulining oldini olish muammolari tobora ko'proq ko'rib chiqilmoqda.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Zamonaviy dunyoda sog'liqni saqlash psixologiyasi yangi ilmiy yo'nalish sifatida uning shakllanishining dastlabki bosqichidan o'tmoqda. "Psixologik salomatlik" atamasi I. V. tomonidan kiritilgan. Dubrovina, uning fikriga ko'ra, kengroq ruhiy salomatlik hodisasi bilan munosabatlarni o'z ichiga olgan, "bu umuman shaxsga tegishli va inson ruhining eng yuqori namoyon bo'lishi bilan belgilanadi" [5]. O. V. Xuxlayevaning fikricha, reproduktiv salomatlikning eng yuqori darajasiga atrof-muhitga barqaror moslashuvga ega bo'lgan, stressli vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuch zaxirasiga ega bo'lgan va atrofdagi voqelikka faol, ijodiy munosabatda bo'lgan kishi erishadi.

Shunga ko'ra, inson hayotining eng yuqori darajasi va muhim jarayoni moslashuv deb aytishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, moslashuv inson hayotining eng yuqori darajasi va jarayonidir. Reproduktiv salomatlikning eng yuqori darajasiga atrof-muhitga barqaror moslashuvga ega bo'lgan kishi erishadi, stressli vaziyatlarni english uchun kuch zaxirasiga ega va atrofdagi voqelikka faol, ijodiy munosabatda bo'ladi. Faqat psixologik jihatdan sog'lom odam harakatchan va tashqi o'zgarishlarga sezgir, ammo ma'lum bir ichki yadroga, xavfsizlik chegarasiga ega, psixologik himoya qilishning samarali usullariga ega, bu unga voqelikning halokatli omiliga qarshi turishga, uning hayotiy faoliyatini optimallashtirishga imkon beradi [8].

**XULOSA.** Shunday qilib, maktabdan universitet ta'lim tizimiga o'tish ko'pchilik yoshlar uchun juda qiyin va burilish nuqtasidir, shuning uchun birinchi kurs talabalarining katta qismi qiyinchiliklarga duch kelishadi va yangi sharoitlarga tezda moslasha olmaydilar. Bu yigitning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, birinchi kurs talabalari har doim ham o'rta maktabda kam ta'lim olganliklari uchun emas, balki ular quyidagi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirmaganliklari uchun bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtira olmaydilar: o'rganishga tayyorlik; mustaqil ravishda o'rganish, o'zini boshqarish va baholash, kognitiv faoliyatning individual xususiyatlariga egalik qilish qobiliyati; mustaqil tayyorgarlik uchun ish vaqtini to'g'ri taqsimlash qobiliyati. Maktabda kundalik vasiylik va nazoratga o'rganib qolgan ba'zi birinchi kurs talabalari asosiy qarorlarni qabul qila olmaydilar. Ular o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash istagini etarlicha rivojlantirmagan.

**KALIT SO'ZLAR:** Salomatlik, moslashish, reproduktiv salomatlik, sog'liqqa munosabat.

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ.** В статье рассматривается проблема репродуктивного здоровья в качестве критерия адаптации студентов-первокурсников педагогического вуза. Описаны результаты исследования отношения к здоровью студентов-первокурсников. При анализе результатов учитывались показатели по 4 сферам, отвечающим критериям адекватности – неадекватности отношения к собственному здоровью: когнитивная, поведенческая, эмоциональная, ценностно-мотивационная.

**ЦЕЛЬ.** Проблема репродуктивного здоровья-одна из общезначимых областей научного знания, представляющая огромное количество

теоретических и методических направлений. Феномен "здравье" изучается на стыке различных наук, так как имеет междисциплинарный характер. При этом теоретические и методологические проблемы "репродуктивного здоровья" до конца не решены. В жизни любого человека постоянно происходят стрессовые, нервные и критические события. На резкий рост нервно-психических расстройств как у детей, так и у взрослых во многом повлияла нестабильность социально-экономической ситуации в стране. В частности, различные социальные изменения затрагивают молодежь, и студенты, по мнению ряда экспертов, могут быть отнесены к группе риска из-за наличия психогенных факторов. Учеба в университете имеет существенные отличия от школы и объективно требует большего напряжения и эмоциональной стабильности, что приводит к ухудшению репродуктивного здоровья первокурсников. В настоящее время все чаще рассматриваются проблемы укрепления здоровья человека, формирования полноценного развивающего и безопасного образовательного пространства, предупреждения социального, личностного и нравственного упадка подрастающего поколения.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ.** В современном мире Психология здоровья как новое научное направление проходит начальный этап своего становления. Термин "психологическое здоровье" и. V. представлено. Дубровина, который, по ее мнению, включал отношения с более широким феноменом психического здоровья, "это относится к человеку в целом и определяется высшим проявлением человеческого духа" [5]. О. V. По мнению хухлаевой, наивысшего уровня репродуктивного здоровья достигает человек, обладающий устойчивой адаптацией к окружающей среде, имеющий запас сил для преодоления стрессовых ситуаций, активно, творчески реагирующий на окружающую действительность.

Соответственно, можно сказать, что высшим и важнейшим процессом жизнедеятельности человека является адаптация. Следует отметить, что адаптация-это высший уровень и процесс человеческой жизни. Наивысшего уровня репродуктивного здоровья достигает человек, обладающий устойчивой адаптацией к окружающей среде, имеющий запас сил для преодоления стрессовых ситуаций, активный, творческий подход к окружающей действительности. Только психологически здоровый человек подвижен и чувствителен к внешним изменениям, но обладает определенным внутренним ядром, запасом прочности, эффективными методами психологической защиты, позволяющими ему

противостоять деструктивному фактору действительности, оптимизировать свою жизнедеятельность [8].

**ВЫВОД.** Таким образом, переход от школы к университетской системе образования является очень трудным и поворотным моментом для большинства молодых людей, поэтому значительная часть первокурсников сталкивается с трудностями и не может быстро адаптироваться к новым условиям. Это негативно сказывается на психологическом здоровье парня. Таким образом, исследования показывают, что первокурсники не всегда могут успешно усваивать знания не потому, что в старшей школе у них мало образования, а потому, что у них не сформированы следующие черты личности: готовность к обучению; способность самостоятельно учиться, самоконтроль и оценка, владение индивидуальными особенностями познавательной деятельности; правильное распределение рабочего времени на самостоятельную подготовку способность. Некоторые первокурсники, привыкшие к ежедневной опеке и присмотру в школе, не могут принимать основные решения. У них недостаточно развито стремление к самообразованию и самодисциплине.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** здоровье, адаптация, репродуктивное здоровье, отношение к здоровью.

### Annotation.

**INTRODUCTION.** The article considers the problem of psychological health as a criterion for the adaptation of first-year students of a pedagogical university. The results of a study of the attitude to the health of first-year students are described. When analyzing the results, indicators were taken into account in 4 areas that meet the criteria of adequacy – inadequacy of attitude to one's own health: cognitive, behavioral, emotional, value-motivational.

**GOAL.** The problem of reproductive health is one of the areas of general importance of scientific knowledge, which provides a huge number of theoretical and methodological directions. The phenomenon of "Health" is studied at the crossroads of various disciplines, since it has an interdisciplinary character. At the same time, the theoretical and methodological problems of "reproductive health" have not been fully solved. In the life of any person, stressful, nervous and critical events always occur. The sharp increase in neuromuscular disorders in both children and adults was largely influenced by the instability of the socio-economic situation in the country. In particular, various social changes affect young people, and students, according to a number of experts, can be included in the risk group due to the presence of

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

psychogenic factors. Studying at the university has significant differences compared to school and objectively requires more tension and emotional stability, which leads to a violation of the reproductive health of first-year students. Currently, the problems of strengthening human health, full-fledged development and the formation of a safe educational space, the Prevention of social, personal and moral degradation of younger generations are increasingly being considered.

**MATERIALS AND METHODS.** In the Modern World, Health Psychology is going through the initial stage of its formation as a new scientific direction. The term "psychological health" I. V. included by. Dubrovina, in his view, included a relationship with a broader mental health phenomenon, "which generally refers to the individual and is defined by the highest manifestation of the human spirit" [5]. O. V. Khukhlayeva believes that the highest level of reproductive health is achieved by a person who has a stable adaptation to the environment, has a reserve of strength to eliminate stressful situations, and has an active, creative attitude to the surrounding reality.

Accordingly, we can say that the highest level and important process of human life is adaptation. It should be noted that adaptation is the highest level and process of human life. The highest level of reproductive health is achieved by a person with a stable adaptation to the environment, has a reserve of strength to cope with stressful situations and actively, creatively reacts to the surrounding reality. Only a psychologically healthy person is mobile and sensitive to external changes, but has a certain inner core, a margin of safety, has effective methods of psychological protection, which allows him to resist the destructive factor of reality, optimize his vital activity [8].

**CONCLUSION.** Thus, the transition from school to university education is a very difficult and turning point for most young people, so that a large part of freshmen face difficulties and cannot quickly adapt to new conditions. This negatively affects the psychological health of the young man. Thus, research shows that first-year students are not always able to successfully master knowledge not because they received little education in high school, but because they did not form the following personality traits: willingness to learn; the ability to independently learn, self-control and evaluate, possess individual characteristics of cognitive activity; the ability to correctly distribute working time for independent preparation. Some freshmen who are used to day-to-day guardianship and supervision at the school are unable to make key decisions. They have not sufficiently developed a desire for self-education and self-education.

**KEYWORDS:** health, adaptation, reproductive health, attitude to health

**M**aktab bilan taqqoslaganda o'quv faoliyatining tuzilishi va shartlari murakkablashadi-o'qituvchilar soni ko'payadi, o'qitish shakllari va usullari o'zgaradi, pedagogik talablar oshadi, o'quv ishlari hajmi oshadi, yangi element ma'ruzalar shaklida o'quv ma'lumotlarini o'qitish va idrok etishning maxsus tizimiga aylanadi, o'quv vaqtini mustaqil ravishda rejalashtirish zarurati tug'iladi, katta hajmdagi o'quv materiallarini o'zlashtirish ustidan har kuni [2]. Dastlab ularning hammasi ham o'z kuchlarini qanday hisoblashni, o'z ishlarini oqilona tashkil qilishni bilishmaydi. Shuning uchun ularning o'quv faoliyati ustidan tizimli nazoratni tashkil etish, individual konsultatsiyalar o'tkazish, kuratorlarning ishi va boshqalar zarur talaba uchun yuqori, ammo qulay darajada amalga oshiriladigan tartibga solinadigan intellektual yuk (haddan tashqari ortiqcha yuk emas) ta'limning dastlabki bosqichida yoshlarning o'zini o'zi tashkil etish va faolligini oshirishning eng muhim shartidir. Natijalarni tahlil qilishda adekvatlik mezonlariga javob beradigan 4 sohadagi ko'rsatkichlar hisobga olindi-o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatning nomuwofiqligi: kognitiv-insonning sog'liqni saqlash sohasidagi xabardorligi yoki malakasi darajasi, asosiy xavf omillari va antiriskni bilish, faol va uzoq umr ko'rishda salomatlikning rolini tushunish; xulq –atvor-insonning harakatlari va harakatlarining sog'lom turmush tarzi talablariga muvofiqligi darajasi; hissiy-sog'liq bilan bog'liq tashvishning maqbul darajasi, undan zavqlanish va zavqlanish qobiliyati; qiymat-motivatsion-individual qadriyatlar ierarxiyasida salomatlikning yuqori ahamiyati, salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun motivatsiyaning shakllanish darajasi.

Keling, "sog'liqqa munosabat" metodologiyasi bo'yicha birinchi kurs talabalarini tashxislashda olingan natijalarni tahlil qilaylik. Talabalarining kognitiv darajadagi salomatlik haqidagi tushunchalarini ko'rib chiqing. Guruh talabalarining 23 foizi salomatlikni "salomatlik, hech narsa bezovta qilmaydi, kasallik yo'q" deb ta'riflaydi, guruh talabalarining 12 foizi salomatlikni inson holati sifatida belgilaydi, bu ham farovon, ham disfunktional bo'lishi mumkin, birinchi kurs talabalarining 23 foizi salomatlikni inson hayotining asosi sifatida belgilaydi (masalan, " salomatlik hayotning zaruriy qismidir inson"). Bundan tashqari, guruh talabalarining 15% salomatlikni profilaktika choralari majmuasi sifatida tavsiflaydi ("salomatlik –bu to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tayyorgarlikni saqlash, aqliy muvozanat kuzatiladigan odamning holati"), birinchi kurs talabalarining 27% salomatlikning muhim xususiyati insonning ma'naviy va jismoniy tamoyillarining uyg'un kombinatsiyasi ("salomatlik–bu insonning ichki holati"). va tashqi rozilik, tinchlik, to'liq jismoniy salomatlik"). Talabalarining 85 foiziga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasidagi xabardorlikka

## PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

**AIM:** One of the qualities that people lack today is to show ways to shape their qualities, such as abstinence, humility, etc.

**MATERIALS AND METHODS:** A manuscript copy of Shihobiddin Abu Hafs Umar Suhrawardi's “Avorif ul-maorif”, held in the Bukhara State Museum

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Reserve. The dissertation used research methods such as systematic approach, retrospective analysis, logic and succession, dialectical, hermeneutic, comparative analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** Many are found among people who run after lust and secularism, forgetting for themselves the feelings of humanity that today seem trivial. To remind these people that they do not forget to appreciate human feelings and achieve bin.

**CONCLUSION:** In the present period of development of Uzbekistan, targeted work on the development of the history of philosophy in different directions is being carried out, we covered some aspects of it at the level possible in this article. Hitting it as a holistic fundamental study in the future is considered one of the next tasks.

**KEY WORDS:** Suhrawardi, "Avorif al-Maarif", the question of the Soul, the human soul, the narration and the mind, istidlol, the people of monotheism, the light of glory, the Supreme spirit, the animal spirit, sufism.

Tasavvufda "nafs" masalasi markaziy o'rinn tutadi. Tasavvufning mumtoz davri namoyandalari bu muammoni hal qilish yo'llari, nafs ofatlarini bilishga oid qarashlarini o'z asarlarida bayon qilganlar. Nafs haqidagi fikr va g'oyalarning Movarounnahr va Xurosondagi qarashlarga ta'siri al-Hakim at-Termiziyy merosida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu yo'naliishda Al-Hakim at-Termiziyyning Movarounnahr va Xurosonda karromiyalar singari juda ko'p tarafdarlariga ega bo'lgan malomatiya harakatiga munosabatini aniqlash, ma'lum darajada uning mintaqa tasavvufidagi ta'siri maqomini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, Malomatiya harakati IX asrning ikkinchi yarmida Nishopurda paydo bo'lib, asosiy g'oyasi "nafs tarbiyasi" va "riyoza" idir. Malomatiylarni boshqa zamondosh tasavvufiy toifalardan farqlab turuvchi tomoni, ular Alloh huzurida ixlosga erishish uchun "nafs"ni ayb va illatlardan muolaja, isloh qilishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bir qarashda bu holatni boshqa barcha tariqatlarda ham ko'rish mumkin. Ammo, malomatiyaning asosiy tamoyillaridan biri maxsus kiyimga burkanib olmaslik, jahriy zikrdan xafiy zikrni afzal ko'rish, maqsadsiz darbadar yurishdan qaytarish kabi ayrim qoidalari XV asrda vujudga kelgan Naqshbandiya tariqati tomonidan o'zlashtirilgan<sup>13</sup>.

<sup>13</sup> Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / Пер. с англ. М. Г. Романов. СПб.: «Издательство», 2004. –С. 344.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Shihobuddin Abu Hafs Umar as-Suhravardining (540-631/1145-1234yy)<sup>14</sup> mashhur “Avorif al-ma’orif” asari malomatiyaning tipologik va psixologik tomonlarini qamrab oladi. Jumladan, al-Hujviriyy “Kashf al-mahjub” asarida malomatiylarni tanqid qiladi, ularning hatti-harakatlarida o’zlarini olib qochgan riyokorlikning alomatlarini ko’radi. “Riyokor imon sohibi odamlar nazariga tushish uchun bila turib riyo uchun bu ishlarni (yaxshi ishlarni) qiladi. Malomatiylar ham anglagan holda odamlarni o’zlaridan nafratlantiradilar. Ularning ham, bularning ham xayoli odamlar fikri haqida”<sup>15</sup>. Demak, nafs haqidagi qarashlarning mohiyatidagi asosiy g’oya nafsni butkul har qanday o’y-fikr, yoki nuqsonlardan tozalash hisoblanadi.

Hakim at-Termiziy johil mutasavviflarni adashgan firqalar – xavorij, rofiza, jahmiylar bilan bir qatorda tanqid qiladi. Uning fikriga ko’ra, bir toifa ilmsiz kimsalar zohidlikni da’vo qilib chiqib, johilliklaridan turli bid’atлarni o’ylab chiqardilar. Ular “zuhd” deganda dunyoviy narsalardan butkul yuz o’girish, dunyo ahlidan uzlatda bo’lish deb tushundilar. Yaqinlari bilan aloqalarni uzdilar, odamlardan uzoqlashdilar, (jamiyatdagi) burchlarini poymol qildilar, boylarning yuzlariga nafrat bilan qaradilar. O’zlarining qalblaridagi boylik hirsi esa misoli baland tog’dir. Bilmaydilarki, zuhdning asli - qalbdagi shahvatlarni o’ldirish. Ular esa tana a’zolari bilan ba’zi narsalardan tiyilib, zohidlikni mukammal ado etdim, deb hisoblaydilar<sup>16</sup>. Jaholatlari shu darajadaki, rizqi kengligi, mol-mulki bisyorligi bilan tanilgan imomlarga ta’na toshlarini otdilar, hatto ba’zi anbiyolarni ham aybladilar. Ular: “Robbimizga tavakkul qildik, rizq talab qilish unga shak keltirishdir – deb, kasb, sa’y-harakat bilan rizq topishni rad etib, o’tirib oldilar. Odamlarning eshiklari ostida ta’ma qilib yurdilar. Ular o’z harakatlari bilan Alloh taoloni aldamoqchi bo’ladilar”. Mazkur qarash o’ziga xos ahamiyatga molik. Chunki, nafs illatlari turli riyokorliklarning, hamma yomonliklarning ildizi hisoblanadi. Malomatiylik bu masalada o’ziga xos yo’l tanlagan. U barcha davrlar uchun xos zamin yaratgan.

Shihobuddin Umar as-Suhravardiy “Avorif al-ma’orif” kitobida malomatiya va tasavvuf ahlini boshqa-boshqa toifalar deb hisoblab: “Malomatiya ixlosga katta e’tibor qaratadilar. Ular o’z holatlari va amallarini yashirish bilan lazzatlanadilar va buni “ixlos” deb biladilar. O’z holat va amallari namoyon bo’lib qolishi, xuddi osiy o’z gunohi ochilib qolgandek,

<sup>14</sup> Suhravardiya tariqatining asoschisi ‘Abdulqodir Abu Najib as-Suhravardiyning (vaf. 563/1168 y.) jiyani

<sup>15</sup> Шиммель А. Мир исламского мистицизма. Перевод с английского Н. И. Пригариной, А. С. Рапопорт 2-е издание исправленное и дополненное. ООО «Садра» Москва 2012. –С. 75.

<sup>16</sup> Ал-Хаким ат-Термизий. Наводир ал-усул. -Т.: II. -Б. 54.

ularni nafratlantiradi. Malomatiy ixlosga erishuvni, uni mustahkam ushlab turishni ulug'laydi, sufiy esa ixlosda yo'q bo'lib ketadi. O'z xulosasi yakunida as-Suhravardiy malomatiyni mustaqil bir toifa sifatida, uning darajasini ko'rsatish uchun malomatiy kishining o'z holatini o'zgalardan yashirishi, bu rashkning bir ko'rinishi ekanligini qayd etadi. Kimki o'z mahbubi bilan xoli qolsa, uni begona ko'rishini xohlamaydi. O'z sevgilisiga bo'lgan sevgisini begonalar ko'rishidan nafrat qiluvchi kimsa, sof muhabbatga erishadi. Ushbu holat sharaflı bo'lsada, so'fiy tutgan yo'lida bu illat va nuqsondir. Shu bois, malomatiy mutasavvifdan oldinda va so'fiydan orqadadir. As-Suhravardiy malomatiyni endi tasavvuf yo'liga kirgan mutasavvif va sayru-sulukda yuksak martabalarga erishgan sufiy o'rtasiga qo'yadi<sup>17</sup>.

Hakim at-Termiziy Abu Usmon al-Hiriyga o'z qarashlarini boshqa yo'l bilan ifoda etadi: "Bu toifaning ilmi ikki qismdir: nafsni uning barcha ofat va ayblari bilan anglash, ikkinchisi esa – Allohnin bilish (ma'rifikat)"<sup>18</sup>. Agar banda faqat o'z "nafsi" bilan ovora bo'lib qolsa, uning ichida g'arq bo'lib ketadi. Umrini shu ishga sarflaydi, lekin nafs balolaridan qutila olmaydi. Bu holda u qachon yuqori martabalarga, oliy maqomlarga yuzlana oladi?! Ushbu ilmlarning ikkinchisi bilan mashg'ul bo'lish esa, qalbni jonlantirishi va munavvar qilishiga kafolat bor. Ana shundagina nafs o'z kirdikorlari uchun qalbda joy topa olmaydi, uning (nafsning) ofatlari batamom yo'q bo'ladi, unda hech qanday ayb kirlari qolmaydi.

Termiziy fikriga ko'ra, nafs, ayb va nuqsonlar bilan butunlay mashg'ul bo'lish – chuqur adashishdir. Bu bilan kishi Allohning ne'matlari, uning ixtiyori va uning tadbirlarini ko'rishga ojizlik qiladi, Allohnin bilish ilmidan g'aflatda qoladi. Bu esa munfaridlar, Unga (Allohga) yetishganlar, Unga (Allohga) bog'langanlar (muttasillar) ilmidir. U kishi (malomatiy) Allahga o'z kuch-quvvati bilan yetishmoqchi bo'ladi. U shunday deydi: Men nafsimdan barcha ayblarni chiqarmog'im, barcha gunoh va ayblardan poklanmog'im, ayblarimni yashiringan manbalaridan qidirmog'im kerak, toki Allah Azza va Jallaga o'z sidqim bilan yuzlanmog'im, uning huzurida bo'lishga erishmog'im kerak. Biz tavsifini keltirgan bu kishi o'ziga berilgan kuch-quvvat va ilm bilan Allahga yetishmoqchi, buning uchun u o'z ayblarini yashiringan manbalaridan qidirdi. So'ngra o'z nafsida mana shu ilmidan zavqlandi, lekin o'zi buni sezib anglamaydi.

<sup>17</sup> Барака А. Ал-Хаким ат-Термизий ва назарийатуху фи-л-вилойа. -Т.: И. -Б. 140.

<sup>18</sup> Уватов У. Буюк юрт алломалари. –Т.: "O'zbekiston", 2020, -Б. 54.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

Suhravardiyada bilishning ikki tayanchi bor: 1) Qur'on – g'oyaviy yo'l ko'rsatgich; 2) shu ko'rsatgich yordamida odam bilimini, ilmi, maorifini oshirib boradi. Kitobning ismi "Avorif ul-maorif" deb atalishi beziz emas. Darhaqiqat, suhravardiyada bilim, e'tiqod, nur tushunchalari bir-biriga aynan yaqin<sup>19</sup>.

Shayx Shihobiddin Abu Hafs Umar Suhrovardiyning fikriga ko'ra, qalbda nafsga qaragan tomon va ruhga qaragan tomon bor. Nafsda esa qalbga qaragan va tab'ga (ya'ni, inson tabiatiga) va g'arizaga (ya'ni, maylga) qaragan tomon bo'ladi. Agar qalb to'la soflanmasa, ruh tomonga to'la yuzlana olmaydi va ikki tomonlama – bir tomoni ruhga, bir tomoni nafsga qarab qoladi. Agar to'liq soflansa, ruh tomon to'liq yuzlanadi va hamma ishda undan madad oladi va borgan sari nuri ortadi. Qalb ruhga tomon jazba qilib, tortilganidek, nafs qalbga tomon jazba qilib, tortiladi. Har bir qalb tomon tortilgan narsa undagi narsa bilan yuzlashadi va qalbga ergashgan nafs ham nurlanib, qalb ergashgan narsa bilan yuzlashadi. Suhravardiyining ushbu diniy-falsafiy qarashlarida nafs va qalb dialektikasida inson kamolotining ayrim jihatlari keng tahlil etilgan. Insondagi o'zgarishlar ko'p jihatdan shu ikki narsa qalb va nafsning islohga kelishi va xotirjailikka erishishiga bog'liqligini ko'rish mumkin.

Buning uchun me'yorga amal qilishi lozim. Bu orqali insoniylik kuchayadi hamda shaytoniy sifatlar, yomon xulqlar bartaraf etilib, insoniy kamolot idrok etildi. Shunda kibriyolik, o'z nafsimi tiyish kabi boshqa rabboniy xulqlarga ega bo'ladi. Shunda banda bandalikning asliyatini tushunib, taskin topadi-degan xulosalarga kelgan.

Suhravardiy fikriga ko'ra, Nafsni tiyish esa shariatga to'la bo'ysunish orqali erishladi. Haq o'z nabisyiga Muhammadga (s.a.v.) shunday degan: "Albatta siz ulug' xulq ustidadirsiz"<sup>20</sup> (Qalam 4-oyat). Odamlarning sharaflirog'i nafslarini tarbiyalaganrog'i va xulqlari go'zalrog'idir. Mujohid aytadi: "Ulug' xulq ustidadirsiz degani bu ulug' din ustidadirsiz deganidir. Din esa barcha solih amallar hamda go'zal xulqlar majmuidir. Nafslar jibilliy tarzda lozim va zarur bo'lgan turli g'aroiz (ya'ni, instinkt) va tab' (xarakter) larga ega bo'ladilar"<sup>21</sup>.

Xarakter haqida asarga quyidagicha izoh beriladi: o'shaning ta'bi (xarakteri) bor, suvdan yaratildi, uning xarakteri bor, qora botqoqdan

<sup>19</sup> Файзуллаев О. Сухравардия. // Мулокот. 1998, 6-сон. –Б. 20.

<sup>20</sup> Куръони Карим. Қалам сураси, 4-оят. -Т.: "Мунир", 2021. – Б. 564.

<sup>21</sup> شهاب الدين سهوروسي. عوارف المعارف № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. -В. Б.148.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

yaratildi, uning ham xarakteri bor, solsol kalfaxxordan, ya'ni sopol kabi quritilgan loydan yaratildi, uning ham xarakteri bor.

Suhravardiy "Avorif ul-Maorif" asaridagi tarbiyaviy ahamiyatga molik g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Suhravardiy qarashlarining har qanday tarbiyaning boshi nafs tarbiyasidan boshlanishi zamonaviy jamiyatda yoshlarni axloqiy, har tomonlama intelektual salohiyatli qilib tarbiyalash uchun avvalo ularda sabr, qanoat, shukr, qalb xotirjamligi va pokligi, insonga e'tibor, o'z zotiga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda ahamiyatlidir.

Shu jihatdan u o'zi tayanadigan ta'limotlarga asoslanib qalbda nafsga qaragan tomon va ruhga qaragan tomonlari keng tahlil etilgan

Suhrovardiya ta'limoti, shuningdek tasavvuf tariqatlarida "nafs" tushunchasini tahlil etish davomida O.Fayzullaev quyidagicha xulosaga keladi: "Tasavvufning asosiy tariqatlaridan hisoblangan Yassaviya, suhravardiya, kubraviya, naqshbandiya ta'limotilarida "nafs" tushunchasiga kengroq qaralgan Hozirgi zamon falsafasida va tabiiy fanlarida "nafs", "jon" va "ruh" tushunchalarini alohida-alohida ta'riflash talab etilmoqda. Baribir, bu sohalarning tarixiy asosi buyuk mutasavviflarning fikrlaridir. Albatta, ularning hamma fikrlari emas, balki hozirgi zamon odamlari uchun faqat foydali fikrlari bizni qiziqtiradi"<sup>22</sup>. Bu to'g'risidagi falsafiy-irfoniy qarashlari bugungi kun yoshlarni tarbiyalashda ham o'z o'rniga ega.

Suhravardiyning nafs tarbiyasi bilan bog'liq fikrlari shoshqaloqlik va sabrsizlik qoralanadi. Yengiltaglik sabr orqali bartaraf etilishi ta'kidlanadi. Hoyu havoga berilish ta'ma va hirsni paydo qilishga olib keladi. Mana shu nuqtai nazardan me'yorga amal qilish ma'nosini boyitishga hamda yomon xulqlarni yo'qotishga sabab bo'ladi. Inson o'zining kamchiliklarini to'g'rilib axloqiy fazilatlar sohiblariga aylanadi. Banda o'z asliyatini anglab taskin topadi. Aksincha bo'lsa nafs uni noto'g'ri yo'llarga boshlaydi. Agar aql to'g'ri yo'lga kirsa, basirat mo'tadil bo'ladi, hamma narsada me'yor bo'ladi. Bu aql shariat nuri bilan ziylangan aqldir.

Shu ma'noda kimki, aqlini shariat nuri bilan ziylantirmsandan faqat aqlning o'ziga suyansa, ya'ni zohiriyl ilmlarni kimki, aqlini shariat nuri bilan ziylantirsa botiniy ilmlarni egallaydi. Zero: "biz bu yerda oddiy odam komil inson darajasiga yetishishi uchun bu yulni asta-sekin, ketma-ket yuzakisisidan chukurrog'iga, oddiysidan murakkabiga, yengilidan og'iriga

<sup>22</sup> Файзуллаев О. Нафс, жон ва рух (Куръон, тасаввуф ва фандаги талқинлари). –Тошкент: "Академия", 2005. -Б. 30.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

o'tish orqali ko'rsatmoqchimiz. Ya'ni, tasavvufdagi dastlabki, ammora pogonasi pedagogik jihatdan oxirgi tarbiya pogonasi bo'lsa uslub ravon bo'lurmidi? Axir, hamma narsa ongga bog'likku. Shuning uchun avvalo ongning o'zini tarbiyalashdan boshlash ma'qul. Shunday qilib, avvalo, nafsi safiya. Bu hozir har bir odamga daxldor. Chunki bu darajaga ilgari ham, hozir ham hech kim yeta olgani yo'q. Bu - ideal holat. Agar dunyoda har bir odam shu darajaga ko'tarilganda edi, har xil katta-kichik kulfatlar zamini yo'q qilingan bo'lur edi"<sup>23</sup>.

Zohidlar iymon nuriga ergashishlari lozim. So'fiylar esa ehson nuriga ergashdilar. Ayrim qalblar islam nuridan sof bo'lsa, ayrimlari iymon nuridan poklanadi. Qalbning poklanishi va nurlanishi esa nafsning yengilishida namoyon bo'ladi.

Suhravardiy fikriga ko'ra, nafshi o'ziga bo'ysundirgan va to'g'rilaqan shaxs bo'lsa, basirati qalb o'rniga o'tadi. To'g'ri yo'lga yuradi va butun borliqning ma'rifatiga erishadi va hidoyatga boshlovchi aqlga aylanadi. Allohning muhabbatiga ergashadi, uni g'azabga keltirishdan saqlanadi. Aqlning to'g'ri bo'lganining belgisi unda basirat ko'zi ochilishi, yaxshilikka dalolat qilib, yomonlikdan qaytara boshlashidir. Bu haqda Omonulla Fayzullaev: "Demak, nafsning (yaxshi-yomon tomonlaridan qat'i nazar) maqsadi jonni saqlash. Jonning o'zi esa Odamni anglatmaydi. Odam - bu jon va ruh birligi, birdamligi. Shundan ma'lumki, ruh bilan jon o'rtasida ham ziddiyat buladi. Nima qilish kerak va nima qilmaslik kerak, degan savolga javob berish uchun mana shu ikkala tomon javob beradi, javoblari qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ruh tanaga kirgandan keyin, go'yo ruh qafasda bo'lib qoladi. Endi tan ruhga ta'sir qiladi, ruh tanga"<sup>24</sup>.

Gap aql haqida ketar ekan, Suhravardiy aytadi: 1) aql-Alloh tomonidan berilgan to'g'ri yo'l ko'rsatkich; 2) aql ham pog'onalidir: zaif va kam, baland va past bo'lishi mumkin. Umumiyligi zaifligi-Allohnini to'la bila olmasligi; 3) aql-zakovat – yuksak ruhning javhari (substansiyasi), xazinasi; 4) aql-intellektual markaz, u ikki xil namoyon bo'ladi: a) quyi pog'onada tashqi olamga qaratilgan; b) yuqori pog'onada-ichki, ruhiy olamni bilishga. Iymon nuri bilan sug'orilgan bunday odamlar ko'pchilik emas<sup>25</sup>.

Umuman olganda, axloqni ichdan sayqallash ko'plab tasavuf namoyandalari ta'limotida o'z aksini topgan. Suhravardiyning qarashlarida

<sup>23</sup> Файзуллаев О. Нафс, жон ва рух (Куръон, тасаввуф ва фандаги талкинлари). –Тошкент: “Академия”, 2005. -Б. 31-32.

<sup>24</sup> Файзуллаев О. Нафс, жон ва рух (Куръон, тасаввуф ва фандаги талкинлари). –Тошкент: “Академия”, 2005. -Б. 49.

<sup>25</sup> Файзуллаев О. Сухравардия. // Мулоқот. 1998, 6-сон. –Б. 22.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

ilm, nafs tarbiyasi, qalb pokligi ham asosiy mesonlar hisoblanadi. Uning qarashlariga hamohang tarzda Qodiriya tariqatining asoschisi Abdulqodir Jiyloniyning ilm egallash zarurligi va bu insoniyatni tanazzuldan asrashini ta'kidlagan fikri bilan taqqoslash mumkin: "Haqiqatdan ham ilm, qadrli bo'lgan narsalar orasida insonga juda yuksak darajada sharaf bermoqda; (chunki ilm orqali inson) oliy martabaga loyiq bo'lmoqda; negaki, ilm eng qiymatli ziynat bo'lib, ma'nani eng ustun tijoratni keltirib chiqarmoqda"<sup>26</sup>.

Shuningdek, "Maqomoti Mir Kulol"da Amir Kulolning muridlariga ta'kidlagan quyidagi o'gitlari keltiriladi: "Qayerda bo'lmaning, sizning oldingizda qanday qiyinchiliklar bo'lmasin, to'siqlar, daryolar, olovlar bo'lsa ham siz ularni bartaraf etib, bilimni egallashingiz kerak. Faqat ilmgina insonga haqiqiy ruh, rohat bag'ishlaydi"<sup>27</sup>.

Xoja Ahror Valiy "ilm" va "ma'lum" tushunchalarini qo'llab, "ilm" dan "ma'lum"ga tomon borish mumkinligini, "ma'lum" ilmdan yuksak pog'onada turishini, "ma'lum"ga yetish uchun kuchli harakat lozimligini<sup>28</sup> ta'kidlaydi.

Shihobiddin Suhravardiy o'zining "Avorif ul maorif" asarida ilm olish xususida keltirgan hayotbaxsh g'oyalari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Suhravardiy so'fiylarning doimo ilm izlagani, ilmga intilganliklari haqida yozadi: so'fiylar birgina so'z uchun Shomdan Yamangacha borganlar<sup>29</sup> va bu sayr haqiqatni izlashning asosi bo'lgan. Jobir ibn Abdulloh (Payg'ambarning sahabalari) Madinadan Misrga bir oy davomida payg'ambarimizning quyidagi Anas Abdulloh aytgan hadislarini aniqlash uchun sayr qilgan ekanlar, ya'ni, Payg'ambar (s.a.v) aytganlarki, "Kimki bilim uchun sayr etsa, u o'z makoniga qaytguniga qadar Alloh yo'lidadur"<sup>30</sup>.

Suhravardiy Oysha (r.a) so'zlarini keltiradi: "Men Payg'ambarimizdan kim bilim olish uchun mashaqqatli yo'lni bosib o'tar ekan, Alloh uning jannatga tomon yo'lini yengillashtiradi<sup>31</sup>. Demak, ushbu diniy qarashlarning mohiyatida ilmga rag'bat uning inson uchun axloqiy fazilat, Allohga tomon yuksaltiruvchi vosita ekanligi namoyon bo'ladi. Suhravardiy qarashlarida suhbat alohida ahamiyatga ega. Uningcha, shayxlar, do'stlar, soliklar bilan suhbat natijasida foyda olish mumkin.

<sup>26</sup>Шайх Саййид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. тарж: О. Жўрабоев. –Т.: Маворуннаҳр. –Б. 34.

<sup>27</sup>Шаҳобиддин ибн Амир Ҳамза. Мақомоти Мири Кулол. Бухоро музейи. Инв № 1158.-Б. 33.

<sup>28</sup>Рахматова Х. Xожа Ахрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. –Т.: "Адиб", 2014. -Б. 58.

<sup>29</sup>شہاب الدین سہروردی. عوارف المعارف № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. .-B. 57a

<sup>30</sup>شہاب الدین سہروردی. عوارف المعارض № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. .-B.57a

<sup>31</sup>شہاب الدین سہروردی. عوارف المعارض № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. .-B.57b

Suhbat ta'lim berishning eng samarali turi hisoblanadi. Suhbat o'zaro tajriba va hissiyotlarning almashinuvdir. Go'zal axloqiy sifatlarga ega bo'lgan insonlar bilan suhbat qilish, ularning davralarida bo'lish insonga bu sifatlarga ergashish imkoniyatini yaratadi. Suhbat orqali savodsizlikdan yuksak axloqiy me'yorlar sari yo'l tutiladi, chunki inson ijtimoiy muhit va atrofimizdagi borliq ta'sirida shakllanadi<sup>32</sup>. Bularni tahlil etishda Omonulla Fayzullaev o'z fikrlarini quyidagicha bayon etadi: Nafs tarbiyasining bir shakli odamning o'zi-o'z nafsi bilan suhbat qilib, to'g'ri yo'lni topib olishidir. Bu sohada buyuk mutasavvif G'azzoliy quyidagi maslahatlarni tavsiya etadi:

1) shaxs o'z nafsi bilan suhbatlashsin va unga aytsin: ey mening nafsim, bilginki mening yakkayu-yagona boyligim umrimdir. U sanoqli nafaslardan iborat, ehtiyyot bo'l, bu sarmoyamni qo'ldan chiqarishga harakat qilma;

2) odam - o'z nafsining egasi, hech bo'limganda mana shu ega sifatida uni nazorat qilib turmog'i lozim, yomon ishlari uchun nafsn jazolab turishi kerak, har holda nafs odamning egasi bo'lib qolmasin. Bu nasihatlar hanuz o'z kuchini yo'qtgani yo'q<sup>33</sup>.

Suhravardiy suhbatning to'rt shaklda namoyon bo'lishini shunday ta'kidlagan:

1. Shayxlar bilan suhbat-murid uchun dori darmondir.
2. Tariqat ahllari bilan suhbat-go'yoki, oziq-ovqatdir, tana oziqlanadi.
3. Gunohkorlar bilan suhbat-zararlidir.
4. Dindan qaytganlar va dinga ishonmaydiganlar bilan suhbat-zaharlidir<sup>34</sup>.

Globallashuv jarayonida xalqimiz dunyo xalqlari bilan hamdaqadam umrguzaronlik qilar ekan, insonga yetib kelayotgan axborot manbalari nihoyatda turli tumandir, bu borada aniq, foydali ma'lumotlar bilan bиргаликда оғимизни зараюйдиган хабарлар борлиги аниқ. Мутасаввифнинг suhbat shakllari va suhbatdosh tanlash xususidagi fikrlari yot g'oyalarga berilmaslikda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Suhravardiy qarashlarida so'fiylar va Payg'ambarning izdoshlari Allohning so'zlari-uning qoidalari (husni istima) bandalar uchun haqiqatga erishish imkonini beradi, deb ifodalagan. Ular Qur'on oyatlarining har biridan bebaho ma'no oladilar. Bu esa so'fiylarni yaxshi ishlar va go'zal

<sup>32</sup> شهاب الدين سهوروسي، عوارف المعرفة № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. -B.57b

<sup>33</sup> Файзуллаев О. Нафс, жон ва рух (Куръон, тасаввуф ва фандаги талкинлари). –Тошкент: “Академия”, 2005. -Б. 34.

<sup>34</sup> Arberry, A. Sufism: An account of the mystics of Islam, 5th ed., London, 1969. -p.104.

**PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**

axloqqa undardi. Tinglashdan tashqari so'fiylar ilohiy ma'lumlik, "vahiy"ni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning shaytonga qarshi kurashga da'vat etadi, kuch-quvvat beradi. Bunday darajaga erishgach, shariatga tomon qadam qo'yadilar. Ular shariat arkonlarini muhim ish deb hisoblaganlar.

Barkamol inson – nafsi tarbiyalangan insondir. Shuning uchun nafs bilan bog'liq mutafakkirlarning qarashlarini o'rganish ahamiyatlidir. Nafs tushunchasi barcha inson haqidagi ta'limotlarda o'rganilgan. Nafs tasavvuf falsafasining ham asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Nafs tushunchasi fiziologiya, dietologiya, axloq-odob, ijtimoiy munosabatlar muammolaridan biridir. Nafs muammozi bilan shug'ullanadigan ilmlardan biri – tasavvufdir. Tasavvufning maqsadi insonni komillik pog'onalariga eltishdir. Tasavvuf inson tarbiyasini nafs tarbiyasidan boshlaydi va uni atroflicha chuqur tadqiq etadi. Inson kamoloti uchun eng katta dushman nafs ekanligini tushuntiradi. Suhravardiy tariqatining yirik vakili Shixobiddin Suhravardiy inson barkamolligida nafs tarbiyasining o'rniiga katta ahamiyat bergen.

Suhravardiy Iroq so'fiylarining namoyondasi Ibrohim al Xavos ibn Ahmad (904-yil vafoti)ning hayotidan misol keltirib, u kishini hayotini sayrda o'tkazganligi, har bir joyda qirq kundan ortiq sayrda qolmaganligini ma'lum qiladi, sig'inganlari qabul qilinmaydi<sup>35</sup>, deb hisoblangan.

Suhravardiy "Avorif ul-maorif" asarida Ibrohim Xavvosning Xizr bilan uchrashganliklari haqidagi hikoyani misol keltiradi: Men o'n bir kun cho'l-u xiyobonlarda kezib yurgan edim, och qolganim uchun yeydigan narsa qidiryotganimda o'simlik topdim. Shu onda Xizrnning mena tomon kelayotganligini sezdim va ko'rdim. Men u bilan suhbatlashishni istamadim va u mendan uzoqlasha boshladi.Undan so'rabdilar:Nega siz muqaddas Xizr bilan hamsuhbat bo'lishni istamading?" U javob beribdi: Men nafsim g'olib chiqib,undan biror yordam so'rasam, Alloh mening tavbalarimni qabul qilmasligi mumkin, deb qo'rqedim<sup>36</sup>.

"Alloning eng sadoqatli do'stlari yolg'iz, qarovsiz va g'arib-u musofirlaridir",-deb ta'kidlaydi mutasavvif. Odamlar Payg'ambarimizdan(s.a.v.) "g'ariblar kimlar?"-deb so'raganlarida, "ular Islomga sadoqat evaziga odamlar bilan muloqotda bo'lishda qochadilar. Ular qiyomat kunida tanlanganlardan bo'ladilar"<sup>37</sup>.

<sup>35</sup> شهاب الدين سهوروسي. عوارف المعرفة № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. -B.102.

<sup>36</sup> شهاب الدين سهوروسي. عوارف المعرفة № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. -B.109.b

<sup>37</sup> شهاب الدين سهوروسي. عوارف المعرفة № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. -B.110.a

## PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

Suhravardiyning nafsni tiyish, kamtarinlik to'g'risidagi g'oyalari hozirgi davrda begonalashuv, xudbinlik, o'zini boshqalardan ustun qo'yish kabi ayrim illatlarning oldini olishda, insonda ijobjiy xislatlarni shakllantirishda ahamiyatlidir.

Ma'lumki, sayyoramizning turli nuqtalarida nizo va adovatlar o'chog'ini yoqishga, diniy omillarni siyosiylashtirishga urinishlar bo'layotgan hozirgi jarayonda Suhravardiyning tinchlik, hamjihatlik, barqarorlik, do'stlik, shafqat va mehr – oqibat muhitini qaror toptirishga doir ezgu da'vatlari ibrat namunasi bo'lib xizmat qilmoqda. Suhravardiy nafaqat ezgulikka da'vat etganlar, balki o'zlari ham el-yurtning tinchligi, osyoishtaligi va mehr-muruvvatning betakror timsoli bo'lganlar.

Xullas, Markaziy Osiyoda, jumladan, uning qoq o'rtasida joylashgan O'zbekistonimizda tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun ham, albatta, ma'naviy tahdidlarga qarshi keskin va muttasil kurash olib borish lozim.

Vayronkor g'oya ilmsiz jamiyatga ko'proq bostirib kiradi. Shuning uchun fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi esa ma'rifat bilan kurashmoq zarur. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma'rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi.

Suhravardiyning axloq, musulmonning odobi, tinchlik, xotirjamlikni qadrlash, shukronalik tuyg'usi ila yashash to'g'risidagi g'oyalari ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitetni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Najmiddin Komilov o'zining "Tasavvuf" kitobida Aziziddin Nasafiy ma'naviy merosi tahlili asosida quyidagilarni e'tirof etadi: "Odam – ilohiy olamning ajralmas qismi, ilohiy olamdag'i ilm va hikmat unda bor. Insonni Iloh olami bilan bog'laydigan javhar – ruhdir. Agar iloh olamini bilmoxchi bo'lsangiz, insonni, ya'ni o'zingizni o'rganing, o'zingizni taning. Insonning qalbi, ruhi, ko'nglini bilish, kashf etish sifatlari, mo'jiza – karomatlari, ilmu hikmati va hatto, zotini ham kashf etish mumkin. Demak, Xudoni anglash, tanish insonni anglash va tanish orqali kechadi. "Kimki o'zini tanisa, Robbisini taniydi", - degan hadisning ma'nosi ana shu. Aziziddin Nasafiy, Abu Hamid G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy bu hadisni mudom zikr etganlar"<sup>38</sup>. Demak, insonni o'zligi, nafsini tanishi bosh masala qolgan masalalar shular atrofida turli bahs munozaralar orqali ochilib boradi.

<sup>38</sup> Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: Мовароуннахр-Ўзбекистон, 2009. –Б. 25.

Foydalanimanilgan adabiyotlar ro'yxati

Шеҳаб аддин Сеҳроорди. عوارف المعارف № Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11.

- 1.Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / Пер. с англ. М. Г. Романов. СПб.: «Издательство», 2004. –С. 344.
2. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. Перевод с английского Н. И. Пригариной, А. С. Рапопорт 2-е издание исправленное и дополненное. ООО «Садра» Москва 2012. –С. 75.
3. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Наводир ал-усул. -Т.: II. -Б. 54.
4. Барака А. Ал-Ҳаким ат-Термизий ва назариййатуху фи-л-вилойа. -Т.: I. -Б. 140.
5. Уватов У. Буюк юрт алломалари. –Т.: “O'zbekiston”, 2020, -Б. 54.
6. Файзуллаев О. Нафс, жон ва рух (Куръон, тасаввуф ва фандаги талқинлари). –Тошкент: “Академия”, 2005. -Б. 31-32.
7. Файзуллаев О. Сухравардия. // Мулоқот. 1998, 6-сон. –Б. 22.
8. Шайх Сайид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. тарж: О. Жўрабоев. –Т.: Мавороуннахр. –Б. 34.
- 9.Шаҳобиддин ибн Амир Ҳамза. Мақомоти Мири Кулол. Бухоро музейи. Инв № 1158.
- 10.Рахматова Х. Ҳожа Аҳрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. –Т.: “Адаб”, 2014. -Б. 58.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]  
[AUTHORS INFO]**

Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich, (PhD, mavjud bo'lsa)

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Namozgoh ko'chasi 24

<https://orcid.org/0000-0002-4401-4784> ; [donish-2015@mail.ru](mailto:donish-2015@mail.ru)

## ФИЗИЧЕСКОЕ ПОДГОТОВКА ПОДРОСТКОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ВОЛЬНОЙ БОРЬБЕ.

Ярашев Жамшид Рассокович

Узбекистан, Бухара

### АННОТАЦИЯ.

**ВВЕДЕНИЕ:** Опытно-экспериментальное исследование позволило выявить уровень физической подготовленности у студентов факультета физической культуры занимающихся вольной борьбой. Полученные в тестовых испытаниях показатели раскрыли, что у испытуемых физические качества сформированы равномерно. Незначительное преимущество наблюдается в показателях сформированности быстроты и силы. Именно эти качества являются для борцов вольников приоритетными, что и подтвердило проведенное опытно-экспериментальное исследование. Равномерное воспитание физических качеств является одним из условий успешного выступления на соревнованиях. Спорт высших достижений предъявляет к организму занимающихся такие требования, удовлетворить которые возможно только при тщательном подборе наилучших средств и методов для воспитания физических качеств.

**ЦЕЛЬ:** В статье рассмотрено содержание физической подготовки студентов факультета физической культуры занимающихся вольной борьбой. Выявлен уровень физической и технической подготовленности у борцов вольного стиля.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** На занятиях, в зависимости от периода подготовки, применяются адекватные задачам различные средства и методы тренировки. Результативнее чередовать различные комплексы упражнений с применением всего разнообразия методов тренировки. Для представленного в работе возраста спортсменов лучше всего подходит соревновательный, круговой, методы и методы рассказа и показа при выполнении специально-подготовительных, соревновательных упражнений, упражнений с партнерами или манекеном. Очень эффективно применение на занятиях с борцами упражнений из других видов спортивной специализации. В вузе имеются для этого соответствующие условия, а именно: спортивные и игровые залы,

тренажёрный зал. Применение данных упражнений способствует гармоничному развитию всех мышечных групп, воспитанию физических качеств, повышению эмоционального фона на тренировках.

**ВЫВОД:** По итогам проведенного опытно-экспериментального исследования выявлено, что студенты улучшили свои результаты во всех тестовых упражнениях к концу учебного года. Такие же изменения имеет и техническая подготовленность у борцов вольного стиля. По итогам учебно-тренировочного года средний балл у испытуемых увеличился во всех технико-тактических действиях. Что свидетельствует о правильном подборе средств и методов физического воспитания. При этом были учтены и условия загруженности студентов в течение дня, так как в первой половине дня они заняты учебной работой, тренировки проводились в вечернее время.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** физическая подготовка, вольная борьба, студенты, физическая и техническая подготовленность.

#### ANNOTATION.

**INTRODUCTION:** An experimental study made it possible to identify the level of physical fitness among students of the Faculty of Physical Education engaged in freestyle wrestling. The indicators obtained in the test tests revealed that the physical qualities of the subjects were formed evenly. A slight advantage is observed in indicators of development of speed and strength. It is these qualities that are priority for freestyle wrestlers, which was confirmed by the experimental study. Uniform development of physical qualities is one of the conditions for successful performance in competitions. High performance sport places demands on the body of those involved, which can only be satisfied with careful selection of the best means and methods for developing physical qualities.

**AIM:** The article describes the content of physical training of students of the Faculty of Physical Education involved in freestyle wrestling. The level of physical and technical readiness of freestyle wrestlers was revealed.

**MATERIALS AND METHODS:** На занятиях, в зависимости от периода подготовки, применяются адекватные задачам различные средства и методы тренировки. Результативнее чередовать различные комплексы упражнений с применением всего разнообразия методов тренировки. Для представленного в работе возраста спортсменов лучше всего подходит соревновательный, круговой, методы и методы рассказа и показа при

выполнении специально-подготовительных, соревновательных упражнений, упражнений с партнерами или манекеном. Очень эффективно применение на занятиях с борцами упражнений из других видов спортивной специализации. В вузе имеются для этого соответствующие условия, а именно: спортивные и игровые залы, тренажёрный зал. Применение данных упражнений способствует гармоничному развитию всех мышечных групп, воспитанию физических качеств, повышению эмоционального фона на тренировках.

**CONCLUSION:** Based on the results of the experimental study, it was revealed that students improved their results in all test exercises by the end of the academic year. The same changes occur in the technical preparedness of freestyle wrestlers. At the end of the educational and training year, the average score of the subjects increased in all technical and tactical actions. Which indicates the correct selection of means and methods of physical education. At the same time, the workload of students during the day was also taken into account, since in the first half of the day they were busy with academic work, training was held in the evening.

**KEYWORDS:** physical training, freestyle wrestling, students, physical and technical preparedness.

Вольная борьба — это не только спортивная дисциплина, но и искусство, требующее высокой физической формы, силы воли и технического мастерства. Подростковый возраст является критическим периодом для формирования физических качеств и спортивных навыков. Поэтому правильная физическая подготовка на занятиях по вольной борьбе играет ключевую роль в развитии спортсменов этой возрастной категории. В этой статье мы рассмотрим основные аспекты и принципы физической подготовки подростков на тренировках по вольной борьбе.

### 1. Учёт возрастных особенностей

Подростковый возраст характеризуется интенсивным ростом и развитием организма. В связи с этим тренерам необходимо учитывать возрастные особенности своих подопечных при планировании и проведении тренировок. Важно подбирать нагрузки, соответствующие физическим возможностям подростков и не наносящие вреда их здоровью.

### 2. Комплексный подход

Физическая подготовка на занятиях по вольной борьбе должна быть комплексной, включая различные виды упражнений и тренировок. Это включает в себя силовые тренировки для развития мышечной силы и выносливости, а также аэробные тренировки для улучшения сердечно-сосудистой системы. Кроме того, важно уделять внимание гибкости, координации и быстроте реакции.

### 3. Техническая база

Одним из важных аспектов физической подготовки подростков на занятиях по вольной борьбе является развитие технической базы. Подросткам необходимо освоить базовые приёмы и движения вольной борьбы, а также развить техническую мастерство и тактическое мышление на матах.

### 4. Постоянство и систематичность

Физическая подготовка требует постоянства и систематичности. Регулярные тренировки помогают укрепить физическую форму, развить выносливость и улучшить технику выполнения приёмов. Только через постоянные усилия и тренировки подростки смогут достичь высоких результатов на соревнованиях.

### 5. Особое внимание к травмопрофилактике

Подростковый возраст сопряжен с повышенным риском получения спортивных травм. Поэтому тренерам необходимо уделять особое внимание травмопрофилактике на тренировках. Это включает в себя правильную разминку, обучение правильной технике выполнения приёмов, а также контроль за нагрузкой и отдыхом.

В заключение, физическая подготовка подростков на занятиях по вольной борьбе играет важную роль в формировании спортивных навыков и развитии физических качеств. Правильный подход, основанный на учёте возрастных особенностей, комплексности тренировок и систематичности, поможет подготовить подростков к достижению высоких результатов в этом увлекательном виде спорта.

Примерный план тренировок для группы занимающихся вольной борьбой:

Вторник разминка 15-20 минут; игра в регбол 2x25 минут; выполнение специально-подготовительных упражнений 10 минут; совершенствование ТТП: в стойке 2x5 минут, в партере 2x5 минут;

выполнение упражнений для общефизической подготовки 20 минут, методом круговой тренировки. Четверг разминка 15-20 минут; выполнение специально-подготовительных упражнений 10 минут; совершенствование ТТП: в стойке 4х5 минут, в партере 4х5 минут; выполнение учебно-тренировочных схваток 4х6 минут; выполнение упражнений для общефизической подготовки 30 минут, методом круговой тренировки. Суббота разминка 15-20 минут; выполнение специально-подготовительных упражнений 10 минут; совершенствование ТТП: в стойке 4х5 минут, в партере 4х5 минут; выполнение тренировочных схваток 4х6 минут; выполнение упражнений для общефизической подготовки 60 минут, методом круговой тренировки.

В тестовом упражнении бег на 30 м (с) результат с 4,97 с улучшился до 4,27 с; в челночном беге 3x10 м (с) полученный результат в начале года был 6,65 с, к концу года студенты показали результат 6,04 с, что говорит об улучшении координационных способностей. Показатели выносливости улучшились с 2,35 мин до 2,24 мин, такие изменения мы связываем с тем, что

вид спорта вольная борьба является ациклическим и для нее более важным является показатели скоростно-силовой выносливости.

Уровень сформированности силы у студентов имеет существенные изменения, особенно в таком teste как подтягивание на перекладине с 19,09 раз до 24,36 раз; тест на сгибание и разгибание рук, в упоре лёжа (кол-во раз за 20 с) показал следующие результаты: в начале года 20,36 раз в конце года 22,27 раз. Показатели силовой выносливости у студентов в teste подъём туловища, лёжа на спине (кол-во раз за 20 с) улучшились с 18,00 раз до 19,45 раз. Уровень сформированности скоростно-силовых качеств измерялся в teste прыжок в длину с места (см), показанные результаты свидетельствуют о повышении данного уровня, результат в начале года 203,91 см, а к концу года 222,45 см. Для выявления уровня владения техникой студенты факультета физической культуры сдавали переводные нормативы по технической подготовленности. Для этого были отобраны следующие упражнения: забегания на мосту, перевороты с моста, вставание со стойки на мост и обратно в стойку, кувырок вперед, подъём разгибом. В технико-тактических действиях оценивалось умение выполнять защиту, приёмы, контрприёмы и различные комбинации в стойках, а также в партере из всех классификационных групп.

Оценивание техники проводилось в баллах: «5 баллов» – получал испытуемый за выполнение упражнения в полном объёме по правилам и в высоком темпе;

«4 балла» – получал испытуемый за допущенные незначительные отклонения от правильного выполнения, и (или) за задержку при выполнении упражнения;

«3 балла» – получал испытуемый за значительные отклонения при выполнении упражнения, скорость и темп выполнения упражнения были низкими, вплоть до остановки.

#### **Литература:**

1. Тураев М.М., Баймурадов Р.С., Файзиев Я.З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах // Педагогическое образование и наука, 2020. №. 3. С. 132-135.
2. Файзиев Я.З., Зиёев Д.Я.У. КРАТКИЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА //Academy, 2020. № 9 (60).
3. Файзиев Я.З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе // Вестник магистратуры, 2020. № 3-1. С. 95.
4. Bozorova S., Fayziev Y. The development of motor memory of students in physical education classes // Student science: research works, 2019. C. 47-48.
5. Джураева М.З. Healthy lifestyle in perfect generation's upbringing / Scientific researches for development future December 20. 2019. New York, USA. P. 75-77.

#### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Ярашев Жамшид Рассокович, Узбекистан, Бухара.**

**PEDAGOGIKA va  
PSIXOLOGIYA**

**Ilmiy-nazariy va  
metodik jurnal**

**1-son (2024-yil, mart)**

**Jurnal 2022-yildan  
chiqa boshlagan**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Orginal maket uchun  
mas’ul:  
Mirshod SATTOROV**

**Dizayner:  
Shoxrux AHMADOV**

**Maqolalarni qabul  
qiluvchi:  
Anvar NUSRATOV**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.

Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi  
01.04.2024

Qog‘oz bichimi:  
60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi. Sharqli bosma tabog‘i – 5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 1  
Bahosi kelishilgan narxda.

**“BUXORO”  
DETERMINANTI”  
MCHJ**

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:  
Buxoro shahri  
Namozgoh ko‘chasi 24-uy.

QAYDLAR UCHUN / ДЛЯ ЗАМЕТОК / FOR NOTES

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



<https://scientificjournal.uz/>

